

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon Davlat Universiteti

Musiqqa va uni o`qitish metodikasi kafedrası

SAIDOVA (MIRZAJONOVA) GAVXAROY PO`LATOVA

«MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA XALQ MUSIQA

IJODIYOTI VA IJROCHILIK MAXORATI»

5141000-musiqiy ta`lim yo`nalishibo`yicha bakalavr akademik

Bitiruv malakaviy ishi

dararajasini olish uchun yozgan

ILMIY RAHBAR:

M. HURALIYEVA

ANDIJON -2013

RE'JA:

Kirish

I BOB. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqa ijodiyotini o'rgatish orqali o'quvchilarni milliy an'alar ruxida tarbiyalash masalalari.

I.1. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq folklor ijodiyotini bilan tanishtirish.

I.2. Xalq musiqa ijodiyotini o'rgatishda ustoz-shogird munosabatlaridan foydalanish.

II BOB. Musiqa madaniyat darslarida o'zbek musiqiy folklori cholg'ularini o'rganishdagi tutgan o'rni.

II.1. Musiqa madaniyati darslarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar

II.2. Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida milliy musiqamizni o'ziga xos bezaklari orqali o'rgatish.

Xulosa

Ilovalar

Foydalanillgan Adabiyotlar

KIRISH

Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri - bu ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish milliy uyg'onish g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga etkazishdir.

I.A. Karimov.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak." Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga

qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va bo'tun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili "Ta'lim to'g'risidagi qonun va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" qabul qilindi. Unda "O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar, jamiyatning istiqbolidagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi" deyilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Yosh avlodni ma'naviy - ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy – tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi" deyilgan.

Shuning uchun ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda chunonchi: oliy o'quv yurtlari, o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida, malakali ustalarning shaxsiy ustaxonalarida, qo'shimcha kasb-hunar kollejlarida usta – shogird odobi to'liq o'rgatilmasligi o'quvchi-yoshlarimizni ahloq odobiga va bilim darajasiga, umuman ularning ma'naviyatining shakllanishiga salbiy ta'sir etayotganligining guvohi bo'lamiz.

Bu masalalarni amalga oshirishda ajdodlarimizni bizga qoldirgan ma'naviy xazinalaridan o'rinli foydalanib yoshlarimizga kasb-hunar o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining barcha saxolarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ma'naviy, marifiy, mafko'raviy, kasbiy jihatdan mo'tloqo yangi zamon kishisini shaqillantirishni talab etadi. Xozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona, tarixiy qadriyatlarni hisobga olgan xolda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb soxiblarini tayorlash muommasi davlat miqiyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari

Vatanimizning har tomonlama andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga talim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy sanat namunalaridan, ota - bobolar tomonidan yaratgan va bo'tun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Tal'im va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l va uslublar yig'indisi o'qitish metodikasi deyiladi. Darslarni milliy an'analar ruxida tashkil etish, shu bilan birga darslarni nazariy ham amaliy qoidalariga asosan o'tish, o'quvchilarni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishish bilan boy tarixiy madaniy merosimiz keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Jamiyatimizdagi yangilanish va isloklar tufayli dunyo sivilizatsiyasiga munosib xissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan yuksak ma'naviyat, axloqiy madaniyat, chiroyli milliy an'analarimizdan foydalanish imkoniyati ochildi".

Yangi ta'lim tizimi mazmuniga o'tmishning qimmatbaho ma'naviy qadriyatlarini kiritish va unitilayozgan yoki taqiqlangan ba'zi bir ko'rinishlarini qayta tiklashdan maqsad, o'tmish oldiga egilish emas, balki unga tayanib, ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi pog'onasiga chiqishdan iboratdir.

Shuning uchun ajdodlarimizning boy tajribalarini yosh avlodga o'rgatish, ularda ilm-ma'rifatga, madaniy qadriyatlarga va kasb-hunarga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish biz ziyolilarning zimmamizdagi muhim vazifa xisoblanadi. Bolalarni kichik yoshdanoq, san'atga oshno qilib tarbiyalash, ularni kasb-hunarga qiziqtirish, ustoz-shogird an'analari asosida tarbiyalash o'quvchilarning ahloq odobiga, bilim darajasiga, umuman, ularning ma'naviyatining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Asrdan-asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ulug' ajdodlarimizning milliy-ma'naviy merosi, jahon sivilizatsiyasi durdonalarining shaxs kamolotidagi ahamiyati cheksizdir. Bu masalalarni amalga oshirishda ajdodlarimizni bizga qoldirgan ma'naviy xazinalaridan o'rinli foydalanish, ularni yosh avlodga ko'proq tanitish, o'rgatish lozim bo'ladi. Ana shu ma'noda tasviriy

san'at darslarining o'quvchilarni milliy va manaviy qadriyatlar asosida tarbiyalash va ularda nafasat tarbiyasini shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir. Mening BMI mavzum aynan musiqa madaniyati darslarini tashkil etish hamda o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalashda xalq musiqa ijodiyoti, cholg'u ijrochiligini o'rgatishda ustoz – shogird munosabatlaridan foydalanish masalalariga bag'ishlanadi. Mazkur mavzuni bejiz tanlamadim, chunki Musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning eng sevimli va qiziqarli mashg'ulot turlaridan biridir. Bu mashg'ulot o'zining erkin va ijodiy характери bilan ajralib turadi. Mana shunday mashg'ulotlar davomida ularga ustoz-shogirdchilik an'analari va odobi orqali milliy, sharqona tarbiyani singdirish mumkin. O'quvchilar qalbini mana shunaqangi sevimli mashg'ulotlar davomidagina zabt etish va biror bir g'oyani, tarbiyani ularga singdirish mumkin deb o'ylayman.

Mavzuning dolzarbligi ham ana shu maqsaddan kelib chiqadi deb xisoblayman. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi yoshlar har tamonlama etuk bo'lishlari bilan birga milliy qadriyatlarimizni chuqur bilishlari, ana shunday sharqona boy o'dob ahloq egalari va mukammal bilim sohiblari bo'lishlari lozimdir. Zero, muhtaram prezidentimiz bugungi yoshlar o'ta madaniyatli, san'atni teran xis etuvchi, ma'suliyat va burch xissini barcha narsadan ustun qo'yuvchi ziyoli bo'lib tarbiyalanishi zarurligini ta'kidlaganlar. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati muhtaram prezidentimizning yuqoridagi fikr mulohazalari va takliflariga mana shu ilmiy ishim bilan "labbay" deb javob berishimdir deb o'ylayman. Mening rejam uch asosiy kismdan, ya'ni kirish, ikki bob va xulosadan iborat.

Mavzuni yoritishda ko'plab adabiyotlar bilan tanishib chiqdim, ularni tahlil etib, ijodiy yondoshishga harakat qildim. BMI ni baholash siz aziz ustozlar hukmiga havoladir.

I BOB. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqa ijodiyotini o'rgatish orqali o'quvchilarni milliy an'alar ruxida tarbiyalash masalalari.

Hozirgi biz yashayotgan davr tezkor ilmiy – texnika inqilobi asri xalq ijodida ham o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy – siyosiy, madaniy va xo'jalik hayotida yuz berayotgan katta o'zgarishlar yangi insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi, san'at, adabiyot, shu jumladan xalq ijodiy zakovati bo'lgan musiqa san'ati va fani oldiga ham g'oyat muhim vazifalar qo'ydi.

Xalq musiqa ijodi ham folklorning boshqa turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal formalarga juda ko'p tarixiy faktlarga ega bo'lgan san'at turidir.

Milliy musiqa san'atining eng yorqin koloritlar, nafosati xalqni falsafiy - ijtimoiy tafakkuriga boy, teran fikr va g'oyalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi zahirida har bir millatni o'z boshidan kechirgan voqealarni, uning baxt uchun kurashlarini yaqqol ko'rish mumkin.

Dono xalqimiz yaratgan boy musiqa ulqan ma'naviy boyligimiz bo'lib, u yosh avlodni ahloqiy va g'oyaviy estetik tarbiyasi uchun ham bebaho manba bo'lib hisoblanadi. Chunki, go'dak xalq musiqasini eng nafis va orombaxsh turi – ona allasini beshikda yotganida hali tili chiqmasdanoq idrok eta boshlaydi. Demak xalq musiqasi, san'atning kishi qalbiga eng yaqin turidir. Shuning uchun Respublikamiz umum o'rta ta'lim maktablarining musiqa dasturlarida xalq musiqa ijodiga alohida o'rin berilgan. Xalq musiqa ijodi

materiallariga har bir sinfning yillik o'quv materiallari qatoridan o'rin berishni taqozo qiladi.

Chunki xalq musiqa ijodi professional musiqaning asosidir va har bir bastakor xalq musiqasi uslublaridan, undagi nafis ohanglardan o'rinni foydalanganligi natijasidagina badiiy yuksak va ko'p ovozli yangi asar yarata oladi. Buning isboti shuki, barcha millatlar uchun umumiy bo'lgan hozirgi zamon musiqasidagi major va minor ladlari xalq musiqa darslarining yuqori darajada taraqqiy etishi natijasidagina shakllangan va klassik musiqani maydonga kelishi bilan qaror topgan.

Boshlang'ich sinflar dasturidagi xalq kuylari va bolalar qo'shiqlaridan tanlab muntazam ravishda o'rganib borish, o'zbek xalq musiqasini idrok etish malakalari asosida qardosh xalqlar musiqalarini idrok etishni o'rganib borish, o'quvchilarni qo'shiqni musiqiy ohangi va she'rning mazmunini to'g'ri tushunib idrok etishga o'rganish qo'shiq san'atiga xos badiiy suratlardan foydalanish mumkin.

4 - 7 sinflarda xalq musiqalarining o'rganishda turli pedagogik amallardan tushuntirish, suhbat, hikoya, savol – javob, kichik suhbat, insholar yozish, darslik bilan ishlash, qo'shimcha adabiyotlardan unumli foydalanish lozim. Ma'lumki, ayniqsa 6 – 7 sinf o'quvchilarida informatsiyalarni qabul qilinish kuchli bo'lib, ular yangi masalalarning mohiyatini tushunib olishga qiziqadilar. Shuning uchun har bir asarni o'rganishda shu asar egasi hisoblangan millatning musiqa madaniyati, asarning xususiyati, badiiy va g'oyaviy mazmuni haqida o'quvchining qisqa vaqt qiziqarli axboroti katta ahamiyatga molikdir.

Asarni o'rganishda suhbat va savol – javob metodlarini o'quvchilarda asarga nisbatan ijodiy munosabatni kuchaytiradi. Xalq musiqasi - davr oynasi. Binobarin, u o'zi yaratgan davrning mohiyatini o'sha xalqning musibatini, erk uchun kurash tarixini, baxt – saodat yo'lidagi orzu – istaklarini aks ettiradi. Ya'ni xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tilga egadir.

Xalq mashshoqlari sodda ixcham va teran fikrni xalq doston va g'azallarini badiiy - g'oyaviy hamda poetik ohangiga mos kuylar yaratganlar.

Shuning uchun xalq musiqa ijodini adabiyot darslarida o'rganiladigan materiallar bilan bog'lab olib borish, ayniqsa xalq og'zaki badiiy ijodiga keng o'rin berilgan 4 – 5 sinflarda xalq musiqa ijodini ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, o'qituvchi bu kelay imkoniyatdan unumli foydalanishi zarur. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bir sinf uchun programma materiallaridagi o'zaro uzviy bog'liq maqsadlarini aniq belgilashi va har bir konkret imkoniyatlarni albatta hisobga olishi kerak. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar musiqa janrlari uchun xususiyatlari bo'yicha o'z bilim olganliklari sababli 4 - sinfda ularga avvalo musiqa san'atining asosiy xususiyatlari uning eng oddiy va ommaviy janr turlari haqida tushuncha berib, xalq musiqasi bilan bastakor yaratgan professional musiqaning farqini, xalq musiqa janri badiiy folklor singari uzoq taraqqiyot tarixiga ega ekanini, sodda, ravon, yorqin ohangda, mungli va xushchaqchaq dilrabo usullarda jaranglashini tushuntirish, shuningdek, ular bilan atoqli xalq hofizlari to'g'risida savol – javoblar o'tkazish kerak. Demak, 4 – sinfda darslarni biroz tezlatish metodlari asosida o'quvchilarning idrokli, muhokama kuchiga xos ravishda olib borish kerak.

Yuqori sinflarda xalq musiqa ijodi bir muncha jiddiy tarzda o'rganiladi va unda musiqa tinglash asosiy o'rinli egallaydi.

O'quvchilarga o'rganish mashg'ulotlarini o'zbek xalq musiqasi haqidagi suhbat bilan bog'lash, o'zbek xalq musiqasi tur va janrlariga ifoda vositalariga boy bo'lib, xalqimizning milliy iftixori ekanligini asarlar davomida mehnat, kurash va ijodda kishilar uchun ilhom manbai bo'lib, kelganligini, turli janrdagi kuy va qo'shiqlarda xalqimiz tarixidagi voqealar ma'lum darajada aks etganini, o'quvchilarga tushuntirish g'oyat foydalidir. O'quvchilar o'zbek xalq qo'shiqlarini idrok etishda orttirgan tajribalar asosida, qardosh xalqlarning qo'shiqlaridan namunalar tinlaydilar.

O'quvchilar xalq qo'shiqlarini o'rganish va ularning o'zaro uzviyligi asosida o'zbekcha qo'shiqlardan keyin: turkmancha, azorbayjoncha va boshqa qo'shiqlarni tinglash jarayonida shu xalqning musiqa madaniyati to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni har tomonlama chuqur idrok etadilar. «qardosh

xalqlarning raqs va kuylari» mavzuida qo'shiq tinglash bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazilsa, o'quvchilarni darsda olgan bilimi va taassurotlari kengayadi va mustahkamlanadi. Natijada o'quvchilar professional musiqa va xalq musiqasi o'rtasidagi farqni idrok etib muayyan tushunchaga ega bo'ladilar. YUqori sinflarda xalq musiqa ijodini o'rganishning eng muhim qismi - o'zbek va tojik xalqlari azaldan birodarligining yorqin timsoli bo'lgan «Shashmaqom» va uning atoqli ustozlari domlo Halim Ibodov, Abdulaziz Abdurasulov, akademik Y.Rajabiyning ijodi bilan tanishuvidir. Bunda «Shashmaqom» uzoq asarlar davomida tojik va o'zbek xalq musiqalari asosida shakllanganligi ular avloddan – avlodga o'tib, takomillashib, xalq klassik musiqasiga aylanganligini tushuntirib, maqomlar turkumlari turkman va uyg'ur, eron xalqlarida ham mavjud bo'lib, ularning o'xshashlik va umumiylik xususiyatlari g'oyaviy maqsadlardagi mushtaraklar haqida ham to'xtab o'tish lozim.

Barcha xalqlar musiqasining o'zaro yaqinlashuvi, bir –birlarini boyitish maqsadida Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodini o'rganish uchun o'zbek va tojik musiqa merosi va ijrochilik san'atini chuqur o'rganib, maqomlarni yangi zamonaviy tarzda o'zbek va tojik shoirlarining she'rlari bilan kuylagani, o'z san'atini boyitish maqsadida sharq mamlakatlariga safarga chiqib, u joylarga milliy musiqa san'atimizni namoyish etib katta obro'ga ega bo'lgani sir emas.

Ma'lumki, hozirgi kunda xalq musiqa ijodi yuqori darajada gullab – yashnamoqda. Xalqimiz mehnatida va ijtimoiy hayotida ijod namunasiga aylanadi. Hozir biror musiqa asbobi bo'lmagan uylar yoki maktab va internatlar juda kam. Minglab xalq talantlari va professional san'atkorlar darajasida mahorat ko'rsatib yangi – yangi raqs, qo'shiqlar yaratmoqdalar. Demak maktab o'quvchilari maktabda va boshqa barcha jamoatchilik joylarida ko'proq xalq musiqa ohanglari muhitida bo'lib, badiiy – g'oyaviy jihatdan turlicha xalq musiqalarini o'z istaklari bilan idrok etadilar. Xalq musiqasi o'quvchilarda estetik zavq uyg'otish bilan birga ularning g'oyaviy, emotsional

kechinmalarini teranlashtiradi, his etishni o'rgatadi. Turli xalqlar musiqasi va ko'p millatli, serqirrali musiqani har tomonlama idrok etish uchun yo'l ochadi.

Musika fani o'quvchilarni umummilliy iftihor va baynalminal do'stlik ruhida tarbiyalashda ham xalq musika ijodi ravnaqining o'sishida ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq qo'shiqlari o'zining shakl va janr xususiyatlariga ko'ra sertarmoqli bo'lib, ular orasida alla, qo'shiq, ashula, yalla, laPar va bolalar folklor qo'shiqlari ommaviyligi bilan ajralib turadi. Masalan, inson hayotida birinchi eshitgan qo'shiq – bu alladir. Alla onalarning dil turidan sizib chiqqan ezgu-umidlari, farzandini kelajagi haqidagi shirin orzularining ifodasidir. Allaning sehrli qudrati haqida buyuk alloma Abu Ali ibn Sino shunday yozadi. “Bolani mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun zarur musiqali alladir. Bu ikki narsani qabul miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi”.

Qo'shiq barmoq vaznidagi to'rtlik she'riy misralar bilan aytiladigan qo'shiqchilik ijodiyotidagi eng keng tarqalgan, sermahsul janrdir. O'zbek xalq qo'shiqlari o'zining uzoq tarixiga ega ekanligini Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu-lug'atit turk” asarida keltirilgan ko'Plab qo'shiqlar (arabcha “she'r”, “qasida”, “ramaz” deb tarjima qilingan) misolida ham ko'rish mumkin. Olim tomonidan to'Plangan qo'shiqlar o'zbek yozma adabiyotini yuzaga kelishi va taraqqiy etishida zamin bo'lib xizmat qilganligini tasdiqlaydi.

Yalla va laparlar o'zining quvnoqligi, sho'xchanligi, hazil-mutoyibaga moyilligi, raqsboqligi bilan kishilarda quvnoq kayfiyat hosil qiladi, ularni ruhini tetiklashtiradi, mehnat va ijod qilishiga ilhomlantiradi. Folklor qo'shiqlarida esa xalq hayotining turli ko'rinishlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Folklor so'zini “xalq”, “donishmandlik” degan ma'noni bildirishini o'zi ham bejiz emas. Qadim-qadimdan turli kasb egalari tomonidan har bir kasb, mehnat turi, tabiat, fasllar, oilaviy rasm-rusumlar, mavsum-marosimlar bilan bog'liq folklor musiqalari zahirida xalq donishmandligining o'ziga xos badiiy in'ikosi mujassamlashgan. Bunday musika asarlari o'quvchi-yoshlarda o'zi mansub bo'lgan xalqning tarixi,

tili, urf-odatlarini, boqiy qadriyatlariga hurmat-ehtirom, qadrlash va vorislik qilish tuyg`ularini uyg`otadi. Bolalar qo`shiqlari esa o`zida bolalarning ruhiy olami bilan kattalar (shoir, bastakor) dunyoqarashining uyg`unlashuvi ostida shakllanib kelgan bo`lib, ularning aksariyati ma`lum bir harakatli o`yinlar orqali ijro etiladi. “Zuv-zuv borag`ay”, “Oq terakmi ko`k terak”, “Arg`amchi”, “Chillak”, “Lanka”, “Halinchak”, “Ramazon”, “Kim oladi-ya, shuginani-ya”, “Oyijon” kabi qo`shiqlar shular jumlasidandir. Bu kabi qo`shiqlarni kichik yoshdagi o`quvchi-yoshlarga o`rgatish orqali ta`lim sifat-samaradorligini ta`minlash, uning mazmunini boyitish va o`quvchilarni ma`naviy, badiiy, estetik kamolotini shakllantirish mumkin. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, bolalar folklor qo`shiqlarining aksariyati biron-bir harakatli o`yinlarni bajarish orqari ijro etiladiki, bu xususiyat bolalarda toPqirlik, zukkolik, epchillik, maqsad sari intilish, irodani chiniqtirish kabi hislatlarni shakllanishiga ijobiy ta`sir etadi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, xalq qo`shiqlaridan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda ularni badiiy etukligi, g`oyaviy mazmuniga ko`ra tarbiyaviy-ta`sirchanlikka ega namunalariga e`tibor berish, o`quvchi-yoshlarni turli yosh davrlariga, ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlariga mos kelishiga ko`ra tanlash eng muhim Pedagogik talablardandir. Aksincha, yengil-yelpi, badiiy sayoz qo`shiqlar esa bola qalbini his etish tuyg`usini, estetik didini nogiron qilib qo`yishi mumkin. Shuning uchun ilk maktab yoshlaridanoq chinakam san`at asari bo`lgan xalq ijodiga xos qo`shiqlar bilan yengil-yelpi, “bir eshitgulik” qo`shiqlarni farqlash, unga nisbatan o`z munosabatlarini bildirib olishdek ko`nikma va malakalarini shakllantirib borish musiqiy-estetik tarbiyaning dolzarb vazifalaridandir.

San`at xalqning chinakam qiziqishi hamda intilishini ifodalaydi va shuning o`ziyoq, san`atning rivojlanishidagi hal qiluvchi omildir. Hozirgi kunimizda estetika san`atning umumiy nazariyasigina emas, balki inson go`zallik qonunlari bo`yicha voqelikni, kishilar hayotiy faoliyatining va jamiyatning barcha sohalarini o`rganishi haqidagi fan hisoblanadi. Shuning uchun. ham endilikda estetik tarbiya faqat badiiy tarbiyadan iborat bo`lib qolishi mumkin emas.

Badiiy va estetik tarbiyani farqlamaslik insonning estetik, kamol topishiga to'sqinlik qiladi, estetik tarbiyaning ta'sir doirasini toraytiradi.

Biz estetik tarbiya deganda, faqat sof badiiy didni emas, balki shu bilan birga inson hayotiy faoliyatining hamma soxalarini o'z ichiga olgan estetik normalarni shakllantirishni ham tushunamiz. Shuning uchun estetik tarbiyaning vositalari faqat adabiyot emas, balki butun voqelikdan: tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, ma'naviy munosabatlar, insonning tabiatga ta'siri va turmushdan ham iboratdir.

I.1. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq folklor ijodiyotini bilan tanishtirish.

O'zbek xalqining musiqiy merosi o'zining ko'p asirlik tarixiga ega, o'zbek musiqalarining ko'plab avlodi faoliyati o'z aksini topgan xalq og'zaki ijodi va professional musiqiy san'at an'analari buning yorqin dalilidir. Hozirgi O'zbekiston huddida O'rta Osiyo harqlarining ajdodlari yaratgan qadimiy madaniyatimizning tarixiy yodgorliklari tasdiqlashi mumkin. O'zbek xalqi musiqiy madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayoni haqidagi tasavvurga ega bo'lishimizda bizga arxeologik qazilmalar, sharq shoirlari ijodida o'z aksini topgan badiiy san'at namunalari yordam beradi. O'zbek musiqa merosi tarixiga oid ma'lumotlarni qidirish, to'plash va notaga yozib olib, ilmiy-nazariy o'rganish amaliy o'zlashtirish hamda shu soha mutahassisliklariga yetkazish ishlari so'nggi yillarda sezilarli darajada jonlanib bormoqda. O'zbek halqining o'z ildizlari bilan qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan boy musiqa merosi bizning kunlarimizda ham yangramoqda. U o'zining halq ijodi (ya'ni folklor) hamda kuy tuzilishi jixatidan rivojlangan ashula va cholg'u asarlari –dostonlar va maqom musiqasini birlashtiradi.

O'zbek musiqa folklori har qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning orzu-umidlari, ularning turmushi va ahloqi, sotsial va milliy ozodlik uchun ko'rashishning ifodasi sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq musiqasining mavzu jixatdan serqirraligi, janglarga boyligi va tutgan o'rnining hilma-hilligi ham ana shu bilan bog'liqdir.

O'zbek qo'shiq-ashulalari va cholg'u musiqasi janglari o'z funktsiyasi va turmushda tutgan o'rniga muvofiq ikki guruhni tashqil etadi.

Birinchisi- ma'lum vaqt yoki ma'lum muddat sharogitidagina ijro etiladigan ashulalar va cholg'u kuylari. Bular: oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar hamda har-hil tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylaridir.

Ikkinchisi –istalgan vaqtda har qanday sharoitda ijro etilgan ashula-qo'shiq va cholg'u kuylari. Ularga: lapar, yalla, ashula, qo'shiq cholg'u kuylari va dostonchilik kuylari kiradi. Har bir guruh o'ziga xos xarakterli belgilarga ega.

Masalan: ijro etilishi ma'lum vaqt yoki sharoitni taqozo qiladigan birinchi guruh ashula-qo'shiq janrlarining mavzuyi muayyan marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog'liq bo'lib, undan deyarli chetlashmasligi bilan ajralib turadi. Darxaqiqat, yuqori professional bilim saviyasiga ega bo'lgan ashula va raqs ansambli raxbarlarini tarbiyalab yetishtirish, ularning bilimini oshirish, yetuk mutaxassislik kasbini olish masalasi hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Xalq musiqasi merosini chuqur o'rganib, uning ijro uslublari, usul sanoqlari kuy o'lchovi, qo'shiqlarning shaklan tuzilishi va nota qochirimlarining o'ziga xos ijro yo'llarini o'rganish, musiqa folklorini badiiy tomonini to'g'ri tanlash o'quvchining estetik, ma'anviy zavqini va bilim saviyasini oshiradi. Xalq musiqalarini o'rgatish asosiy tayanch negrizlaridan biri qog'ozga tushiriladigan asarning sifatli ijrosidir. Uni mukammal to'g'ri chiqishi yaxshi ijro va texnik jihatdan sifatli yozib olinganligiga bog'liqdir. Nota yozib olingan ijrosiga kuy va ashulalarni amaliy o'rganish, musiqiy tahlil qilish, ijrosi qaysi xalq cholg'u asbobini qo'llagan bo'lsa xuddi shu cholg'uning o'ziga xos sadolanish imkoniyatini o'rganish zarur. O'quvchilar notalashtirish fanini o'rganish jarayonida ovoz yozib oluvchi texnika vositalarini turlari bilan tanishishlari va ularni bevosita boshqara olish ko'nikmalarini egallashlari shart. Shuningdek nota osti yozuvi, ya'ni so'z bo'g'inlarini notalar tagida qanday ifodalanishini o'rganish fanning bosh mezonlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari doira usullari, takt sanog'lariga, o'zgaruvchan su'rat va usullarga alohida e'tibor berishi kerak.

Ushbu shartlarga o'quv jarayonida qat'iy rioya qilishni o'quvchilardan doimo talab qilib turish kerak.

Bu borada o'qituvchi va o'quvchi tomonidan notalashtirilgan kuy qo'shiq va ashulalarni diqqat bilan tekshirib, ijro etib turishlari maqsadga muvofiq. Tabiiyki notaga yozib olingan kuy, qo'shiq va ashulalarning musiqiy tahlili ishning sifat darajasini belgilaydi. Ular qo'yidagicha ifodalanadi:

- kuy, qo'shiq va ashulalarning janr xususiyatlari
- musiqiy asarlarning mazmun jixatdan tavsifnomasi,
- notaga yozib olingan asarlarning mazmun jixatdan tavsifnomasi,
- musiqiy asarlarning ohang yo'nalishi lad xususiyatlari
- kuy-qo'shiq va ashulalarning hududiy ijro uslublari

Mehnat qo'shiqlari

O'zbek xalqning o'z ildizlari qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi bizning hozirgi kunlarimizda ham yangramoqda. U o'zining xalq ijodi (ya'ni folklor) hamda kuy tuzilishi jihatidan rivojlangan ashula va cholg'u asarlari, dostonlar va maqom musiqasini birlashtiradi. Qahramonlik hamda qahramonona lirik mazmundagi epik asarlar dostonlar ham muhim o'rin egallaydi. O'zbek cholg'u asboblari hamda musiqa amaliyoti va ijrochiligi uslublari bilan bog'liq, bo'lgan cholg'u musiqa janrlari ham g'oyat rang-barangligi va boyligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek musiqa folklori xar qanday xalq, ijodi kabi mehnatkashlarning orzu-umidlari, ularning turmushi va ahloqi, sotsial va milliy ozodlik uchun kurashning ifodasi sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq, musiqasining mavzu jixatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi ana shu bilan bog'liqdir. O'zbek qo'shiq-ashulalari va cholg'u musiqasi janrlari o'z funksiyasi va turmushda tutgan o'rniga muvofiq ikki guruhni tashqil etadi.

Birinchisi—ma'lum vaqt yoki ma'lum muddat sharoitidagina ijro etiladigan ashulalar va cholg'u kuylari. Bular: oilaviy marosim qolshiqdari, mehnat

qo`shiqlari. Allalar hamda har xil tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg`u kuylaridir.

Ikkinchisi-istalgan vaqtda va har qanday sharoitda ijro etiladigan ashula-qo`shiq va cholg`u kuylari. Ularga: lapar, yalla, ashula, qo`shiq, cholg`u kuylari cho`lama va dostonchilik kuylari kiradi.

Mexnat qo`shiqlari. Mehnat qo`shiqlari xalq ijodiyotining eng qadimiy shakllaridan xisoblanadi. Bu qo`shiqlar ibtidoiy insonning mexnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelib, ana shu jarayonda taraqqiy etgan. Eng qadimiy mexnat qo`shiqlari vazn, qofiya va boshqa poetik shakllar e`tibori jixatidan mukammal uyushmagan, so`zlar ham ongli tarzda bo`lib, ular ko`proq, mehnat jarayonida muayyan xarakter ritmiga mos keluvchi undov, xitob va nidolar xarakteridagi poetik parchalardan iborat tuzilishga ega bo`lgan.

Mehnat turlari ko`p va xilma-xil bo`lganidek, uning qo`shiqlari ham turli-tumandir. Mehnat qo`shiqlarining g`oyaviy mavzu va janr xususiyatlariga qarab uch guruhga bo`lib o`rganish mumkin.

Dexqonchilik bilan bog`lik, qo`shiqlar.

Chorvachilik bilan bog`lik, qo`shiqlar.

Xunarmandchilik bilan bog`lik, qo`shiqlar.

1. Dexdonchilik bilan bog`lik, mexnat qo`shiqlari. Mehnatning bu turi bilan bog`lik, qo`shiqlar rang- barang bo`lib, ulardan bizga qadar «Qo`sh qo`shiqlari», «O`rim va o`rimchilar qo`shig`i», «Xirmon qo`shiqlari» yoki «Xo`p mayda» kabi janrlar yetib kelgan.

Qo`sh qo`shiqlari. Markaziy Osiyo xalqlari qadim-qadimdan dehqonchilik bilan shug`ullanib keladi. Dehqonchilik esa erta baxorda yerni xaydashdan boshlanadi. Yer xaydash og`ir jismoniy mexnat bo`lib, bunday og`ir mehnat paytida dehqonlar qo`shiq, kuylab, o`zlarini ovutganlar. Yozib olingan namunalarda esa og`ir mehnatdan, shafqatsiz tengsizlikdan shikoyat oxanglari ish xayvonlari tilidan bayon qilinadi:

Shoxlarim bor gaz-gaz, kuloch,

Ustida uynar qaldirg`och.

Xayday desam qornim och,
Men qo`shga qanday yarayin.

Qo`sh qo`shiqlarining boshqa turlari mavjud. Ularda lirik bayon bevosita dexqon tilidan olib boriladi.

O`roq, o`rmoq olmoq-solmoq,
Qo`sh haydamoq bormoq-kelmoq,
Hammasidan qiyin ekan,
Ey xo`kizim, ro`zg`or qurmok,

O`rim qo`shiqlari. O`rim—dexqon mehnatining samarasini ko`rsatadigan payt. O`rim qo`shiqlari yakka yoki ko`pchilik tomonidan ijro etilgan. Ularda bahorning injiq, yozning shafkatsiz kezlarida qilingan mehnatning samara berganligidan quvongan dehqonning ko`tarinki ruhi, yetilgan xosilni tezroq, yig`ib olishga bo`lgan kuchli ishtiyoq, tarannum etiladi.

O`rog`im olmos,
O`rimdan qolmas,
Sira ham tolmas,
O`rmasam bo`lmas.

Dehqon xayvonlarni haydab, kun bo`yi xirmonda don yanchar ekan, baland ovoz bilan qo`shiqlar aytadi. Ana shunday qo`shiqlar xalq, o`rtasida «Xo`p mayda» deb yuritiladi.

Xo`p xaydayo, xo`p xayda, mayda-yo, mayda,
Qalqon qulog`im xayda, mayda-yo, mayda,
Temir to`yog`im xayda, mayda-yo, mayda,
Xirmonni qilgan mayda, mayda-yo, mayda.

Yorg`inchoq, qo`shiqlari. Yorg`inchoq, qo`shiqlari aslida dexdonchilik qo`shiqlari sirasiga kirmaydi. Chunki ular bevosita dexqon mehnati bilan bog`lanmagan. Biroq yorg`inchoq dexqonchilik mahsuloti bilan boshlanganligi uchun ham shartli ravishda bu qo`shiqlar dexqonchilik qo`shiqlari sirasiga kiritilgan.

Yorg`inchoq, tortmas edim,

Och qilganimdan tortaman.
Sabzavon aytmas edim,
Kuyganlarimdan aytaman,
Yorg`inchog`im gumbur-gumbur etadi,
Norto`yalar quloq, solib o`tadi
Karvon bilan rizqu ro`zimiz olib,
Eson-omon og`ajonim qaytadi.

2. Chorvachilik bilan bog`lik, mexnat qo`shiqlari. Markaziy Osiyo xalqlari jumladan, o`zbeklar qadim-qadimdan chorvachilik bilan shug`ullanib kelganlar. O`zbek xalqi xayotida dexqonchilik qanday o`rin tutgan bo`lsa, chorvachilik ham shu darajada o`rin egallagan. Shunga ko`ra, bu mexnat turi jarayonida intiluvchi rang-barang qo`shiqlar yaratilgan. Xalq, o`rtasida bu qo`shiqlar sog`iladigan xayvon turiga qarab «Xo`sh-xo`sh», «Turey-turey», «Churey-churey» kabi nomlar bilan yuritiladi.

«Xo`sh-xo`sh»lar yoki «Govmishim» — bu qo`shiqlar asosan sigir sog`ish paytida ijro etiladi. Qo`shiqning asosiy mazmuni sog`ilayotgan sigirni tinchlantirish uni iydish orqali ko`proq, sut sog`ib olish xisoblanadi.

Xo`sh-xo`sh, jonivor, kungir,
Suting okadi shir-shir.
Olti xurma qo`limda,
Iyib sut bilan to`ldir, xo`sh-xo`sh.

Chorvador sigirni yomon ko`zlardan saqlash maqsadida uning shoxlariga maxsus duolar yozilgan tumor taqib qo`yadi. Chunki qadimiy e`tiqodlarga ko`ra yirik zotdor, ko`p sut beradigan sigirlar ko`zga yaqin bo`lib tez ko`ziqib qoladilar.

Shuning uchun ham «Xo`sh-xo`sh» qo`shiqlarida ko`ztumor matni deyarli ko`p qo`llanilgan:

Seni xaydab boqaman,
Ko`ztumorlar taqaman.
Normurodim fe`li bo`sh,

Govmish molim, xo`sh-xo`sh.

«Turey-turey» qo`shiqlari. Bu qo`shiqlar qo`ylarni sog`ish va qo`zilarni emizishda aytiladi. Shuning uchun ham «Turey-turey» qo`shiqlarida ham ona sovliqni madh etish, uni iydish uchun aytiladigan erkalash oxanglari yetakchilik qiladi.

Esli molim-oqilim, turey-turey,

Yelkamdagi koqilim, turey-turey.

Shuncha molning ichida, turey-turey,

Bog`da ochilgan gulim, turey-turey.

Qo`ylarning xid sezuvchi organlari taraqqiy etgan bo`lib, yangi tug`ilgan qo`zilarga boshqa xayvonning xidi urib qolsa, ona qo`y o`z bolasini emizmay qo`yadi. Shunda sog`uvchi «agar bolangni olmasang, seni bozorga chiqarib sotaman», deb sovliqqa do`q-po`pisa qiladi:

Qo`y ichida qorasan, turey-turey,

Aqllisan-donasan, turey-turey.

Agar bolang olmasang, turey-turey,

Bozorlarga borasan, turey-turey.

«Churey» qo`shiqlari. Sog`im qo`shiqlarining bu turi echqilarni sog`ish yoki uloqdorni emizish paytida aytiladi. Churey qo`shiqlarida ulog, yoxud echkinning xarakteri, biror belgisi, ko`pincha soqoli, shohi yoki qashqasi aytilib, ularning tashqi qiyofasi tasvirlanadi:

Shoxlaring bor bir minora, churey-churey,

Minoraga qushlar qo`nara, churey-churey,

Bolang olib iskasang-a, churey-churey,

Olgan shu echkim yaxshi echki, churey.

Sog`ish paytida echki qarshilik qilmay tek turib bersa, sog`uvchi uni maqtab, erkalab, ba`zan yengil xazil bilan tegajog`dik qilib qo`shiq kuylaydi:

Tikraygan qulogi bor, churey-churey,

Chashmadek bulog`i bor, churey-churey.

Ichida egiz ulog`i bor, churey-churey,

Olgan shu echkim yaxshi echki, churey.

Umuman sog'im qo'shiqlari san'ati kishiga o'z ichki dardlarini, ruxiy xolatlarini, alam-iztiroblarini bayon qilishning muhim vositasi sifatida kattaga ahamiyat kasb etadi.

3. Xunarmandchilik bilan bog'liq mexdat qo'shiqlari.

O'zbek xalq, xunarmandchilik qo'shiqlari orasida urchuq, charx, o'rmak, kashta tikish, gilam to'qish, bo'z to'qish bilan bog'liq, qo'shiqlar asosiy o'rin egallaydi. Bu qo'shiqlarda xunarmandlarning og'ir hayoti, mashaqqatli mehnati va ruhiy olami aks etgan.

Charx qo'shiqlari. Charx ibtidoiy ip yigirish quroli bo'lib, uning qo'shiqlarida feodalizm jamiyatidagi o'zbek ayolining og'ir hayoti butun murakkabligi bilan aks etgan.

Charxim palak,

Charx yigirsam.

Saylab kiyaman alak.

Charxim orcha.

Charx yigirsam,

Saylab kiyaman parcha.

Kashta qo'shiqlari. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalq o'tmishdan kashta tikish san'ati bilan mashxur. Shuning uchun ham o'zbeklar o'rtasida kashtaning bosma, jimalay, sanama, ilma kabi turlari yuzaga kelganki, ularning har biri kashtachilardan alohida mehnat, mahorat talab etadi.

Kashtaning turiga qarab hatto qizlarning qandayligiga ham baho berishgan va kashta qo'shiqlarida bu narsa o'z ifodasini topgan.

Bosma tikkan botir qiz,

Jimalay tikkan chevar qiz,

Sanama tikkan sardor qiz,

Ilma tikkan ilgir qiz.

Ilma—kashtaning maxsus turi bo'lib, kashta qo'shiqlarida bu tur ko'p ta'riflanadi.

Ilma tikdim ilib-ilib,
Tomoshaylang yonima kelib.
Rahmat, deydi ko`rgan kishi.
Xar gulimi hayron qolib.

O`rmak qo`shiqlari. O`zbeklar orasida o`rmak o`rish, ya`ni gilam, sholcha to`qish keng tarqalgan bo`lib, ana shu mehnat jarayonida ijro etilgan maxsus qo`shiqlar o`rmak qo`shiqlari, deb yuritiladi. O`rmak to`qish ishlari og`ir mashaqqatli bo`lib, u kishidan katta sabot va g`ayrat talab etadi.

O`rmagimni to`qiyman,
Kecha-kunduz no`qiyman.
Qachon tamom bo`ladi,
Deb ashula to`qiyman.

Bo`zchi qo`shiqlari. Feodalizm sharoitida yengil sanoat, ayniqsa, to`qimachilik sanoati mutlaqo yo`q bo`lib, jamiyat o`zidagi turli matolarga ehtiyojini faqat qo`l mehnati orqali oddiy to`qish dastgohlari vositasida qondirgan. Bo`zchi qo`shiqlarida unumsiz va sermashaqqat mehnatning og`irligi, bo`zchi bozorining kasodligi, to`quvchi oilalardagi muxtojlik kabi oxanglar yetakchilik qiladi.

Do`kon uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o`lmay qolsam yaxshiydi.
Qarisi tillaga ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo`zim arzon ketarmi.

Ammo bo`zchi qo`shiqlari bizgacha nihoyatda kam yetib kelgan, ko`plari unutilib ketgan. Marosim qo`shiqlari. Marosim qo`shiqlari folklorshunoslikning eng muxim omillaridan xisoblanadi. Har bir odat, marosim va an`ana o`zining tarixiy poydevori va ildiziga egadir. Ularning xar biri o`zidan-o`zi paydo bo`lmagan. O`zbek xalqi barcha xalqlar kabi juda qadimiy boy, xilma-xil an`analarga ega. Bularni ijtimoiy tamoyillar turlariga qarab shartli ravishda tabiat,

geografik muhit mehnat turlari, milliy madaniyatga doir an'analarga bo'lish mumkin.

O'zbek marosim qo'shiqlaridagi katta turkumga ajraladi. Bu turkumlar, o'z navbatida, turmushdagi vazifalari hamda poetik tabiati bilan farqlanuvchi xilma-xil janrlarni o'z ichiga oladi.

Mehnat qo'shiqlarida mehnat jarayonida: qo'sh xaydashda, hosil ko'tarishda, paxta terimida, charx yig'irishda, ov qilish vaqtida, meva terishda va boshqa vaqtlarda aytiladi. Bu qo'shiqlarda inson kechinmalari, mehnat, ish turi, tabiat hodisalariga qiyos etilib ifodalangan.

Allalar onalarning jigarband farzandlariga qilgan hasratlaridir. Qadimda allalar inson mehr-muhabbati bilan siynasi to'la onalarning orzu-umid sadolari, vafosiz, zolim erlarga, jafakor zamonga, toshmehr ota-onaga bildirilgan g'azab va noroziliklardan iborat bo'lgan. Ularga katta qalin badaliga sotiladigan qiz, cho'ri, kanizak, sevgilisidan zulm bilan ajratilgan ma'shuqaning nola-faryodlari eshittilardi. Xozirgi allalar esa butunlay boshqacha zamonaviy mazmun kasb etadi.

Allalar onalar, buvilar, opalar, xotin-qizlar tomonidan bola uxlatish paytlarida aytiladi. Allalarning boshqa qo'shiqlardan farqi shuki, u qachon bo'lmasin, gudaklar bor xonadonda aytilaveradi.

Laparlar esa boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi, raksbop kuyga ega bo'lishi hamda dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi. Laparlarning matnlari asosan ishq-muxabbat, hazil, ruzg'ordagi totuvsizlik, ota-onalarning farzanddari bilan bo'lgan munosabatlari ba'zan yengil, ba'zan achchik, kulgi asosida tashqil topgan bo'ladi. Lapar qo'shiq, sifatida asosan kichik diapazonli, shakl tuzilishi jihatidan ikki kremli tuzilishga ega.

Laparlarning musiqiy poetik asoslarining ko'pgina belgilari qo'shiq uchun ham (garchand qo'shiq naqorotli bo'lsa ham) bir xildir.

Termalar dostonchi shoir, jirov, baxshi, sozanda, sannovchilar tomonidan to'y-xashamlarda, sayr-sayoxat, sayillarda, umuman ko'pchilik yig'ilgan joylarda ijro etilgan, turli mavzudagi she'riy parchalardan iborat. Odatda, doston ijrosidan oldin to'plangan xalqning diqqat-e'tiborini tortish, aytuvchi va tinglovchida

kayfiyat tug'dirish uchun terma aytiladi. Termalar mavzu jixatidan xilma-xildir. Lekin ularning aksariyatini dunyoning achchi-chuchugi, baland-pasti, yaxshi-yomoni haqida kuylab mardlikka, adolatga, tug'rilikka chaqirish oxangidagi didaktik xarakterdagi qo'shiqlar tashqil etadi. Termalar o'z kuyining ma'lum darajada rechitativligi, tor diapazoni va ixcham shakli bilan ajralib turadi.

Qo'shiq-janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan tashqil topgan barmoq vaznidagi mustaqil to'rtliklardan iborat. Ayni vaqtda, har bir she'riy misraga tugal melodik tuzilma moslashtirilgan bo'ladi.

Qo'shiq, juda keng tarqalgan janrlardan biri bo'lib, o'z mazmunining xilma-xilligi, ko'p qirraligi bilan aloxida ajralib turadi. Qo'shiq kuylari uchun ritmning ravonligi va aniqligi xarakterlidir.

Qo'shiqda har bir misradan so'ng yoki xar bir banddan, yoxud uning yarmidan keyin takrorlanib keladigan naqarotlar xarakterlidir. Qo'shiqda xos musiqali poetik xususiyatlarning ko'pgina belgilari lapar uchun ham xosdir.

Yalla o'zbek musiqa janrida aloxida o'rin egallaydi. Odatda, yalla qo'shiq, va raks jo'rligida ijro etilib, u ikki xil bo'ladi:

Birinchisi- kuyi nisbatan tor diapazonli bo'lib, she'rdagi har bir band va uning o'yinlari yakkaxon yallachi, naqarot esa har bir guruh, sozanda yoki ashulachilar jo'rligida aytiladi. Ikkinchisining kuyi keng diapazonli bo'lib, band naqarot bilan boshlanib naqarot bilan tugallanadi.

Ashula o'z kuyining cho'ziqligi hamda rivojlanishda diapazonning kengligi, ritmining sezilarli darajada sinkopaligi bilan ajralib turadi. Odatda, ashula kuyi she'riy matnning sog'inch, alam va xasratni ifodalovchi ishqiy-lirik mazmuniga qarab yaratiladi.

Ashulaning rivojlangan namunalari esa ogzaki an'anadagi professional musiqaga mansub. Bunga ashula janrining yana bir boshqa turi-katta ashula yoki patnis-patnusaki ashula ham mansub.

Katta ashula o'z kuyining deklamatsion xarakteri, diapazonining kengligi-uch oktavaga yaqinligiga ko'ra farqlanadigan asosiy melodik tuzilmalardir.

Marosim aytimlari

Marosim turlari, ularda turli dunyoqarashlarning aks e'tilishi, aytimlarning marosimlardagi vazifasi. Mavsumiy marosim qo'shiqlarining yil fasllariga bog'liq e'kanligi. Bahor fasli qo'shiqlari – Boychechak, Navro'z, Sust xotin va b. Yoz oyi qo'shiqlari – Choy momo. Muqaddas Ramazon oyi qo'shig'i – Ramazon, yo ramazon. Zikr (samo) marosimi. Zikr al-jahriy (ovozli zikr) haqida umumiy ma'lumot. Oilaviy marosim turlari va ularda musiqaning tutgan o'rni. To'y marosimlarida (Beshik to'yi, Sunnat to'yi, Nikoh to'yi va b.) karnay, surnay, nog'ora va doyralardan iborat cholg'u ansamblining namoyon bo'lishi. Aytimlarning ahamiyati va ularning shakl jihatdan xilma-xilligi. Alla aytimlari. Ularda onalarning farzand haqidagi e'zgu-niyat va orzu-umidlarining aks e'tilishi. So'zlar mazmuni va kuy-ohanglaridagi badihago'ylik holatlari. Allalarning ikki turi xususida. Kichik hajmi va tor ovoz doirasida hozir bo'lgan allalar. Nisbatan rivojlangan shaklli allalar, ularda keng nafasli kuylarning bo'lishi va ba'zan jo'rsozlikning qo'llanishi.

Nikoh to'yi qo'shiqlari: Yor-yor, kelin salom, to'ylar muborak va motam marosimi yig'i-yo'qlovlari. Sadr tushish. Yig'ilarda so'zning badihaviy bayon e'tilishi, ohanglarining e'rkin o'lchov va ritm asosida hozir bo'lishi hamda kuylik harakatiga moyilligi.

Lapar. O'zbek to'y-marosim qo'shiqlarida lapar muhim o'rin egallaydi. Laparlar boshqa qo'shiqlardan voqeabandligi raqsbop kuyga ega bo'lishi hamda dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi. Laparlarda asosan ishq-muhabbat, hazil, ro'zgordagi totuvsizlik, ota-onalarning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlari kabilar ba'zan yengil, ba'zan achchiq, kulgi orqali aks ettiriladi. Lapar qo'shiq, sifatida asosan kichik diapazonli, shakl tuzilishi jihatidan ikki qismli bo'ladi.

Laparlarning musiqiy asoslari ko'pgina belgilari bilan qo'shiq uchun xosdir.

Lapar aytish Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Chimkent va O'sh viloyatlarida keng tarqalgan. Biz Farg'ona vodiysi va Xorazm laparlarini bir-biriga qiyos qilib musiqiy ritmining o'ynoqiligi, kuyining ta'sirchanligi va ijro uslubining o'ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turishini kuzatamiz. Xorazm laparlarida xalq ruhi,

oliyjanob niyat, barchaga xurmat yaxshilik, baxt tilash, xalq saodati uchun intilish kabi g'oyalar aks etadi.

Agar Fargona vodiysida laparlar ijrosi ikki qo'shiqchi tomonidan dialog shaklida dutor doira jo'rligida aytilsa Xorazmda garmon, bulaman, gijjak, dutor va doira jo'rligida yakka ijrochi xolalar tomonidan ijro etiladi.

Bunga respublika professional va havaskor ansambllar repertuarlaridan mustahkam o'rin olgan va xalq orasida keng tarqalgan Xorazm laparlaridan «Xiva dutori», «Og'a doram», «Qora ko'z», «Dilbar», «Galmadi-galmadi» kabilarni misol sifatida ko'rsatish mumkin;

Fargona vodiysi laparlarining o'ziga xos musiqiy ijro uslubi mavjud bo'lib, bu uslub quyning oxangdorligi, ritmik tuzilmaning ravonligi, cholg'u asboblarning o'ziga xos jo'rnavozligi, laparning doira shaklida ijro etilishi bilan belgilanadi.

Xalq, orasida keng tarqalgan Fargona laparlari “Qora soch”, “Qilpillama”, “Bilakuzuk”, “Illila yor” va boshqalarni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Alla. Alla qo'shiq, san'atining eng qadimiy turi bo'lib, yosh bolalarni uxlatish, orom oldirish uchun beshikka belab, belanchakka solib, tebratib, onalarning alla kuylaydigan qo'shig'idir. Qo'shiqning bu turi ham cholg'usiz mayin orom beruvchi oxang bilan kuylanadi. Tibbiyot olamining allomasi Abu Ali ibn Sino o'zining qonunlari» asarining 1-kitobida shunday yozadi: « Bolaning mizojini kuchaytirmoq, uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va ashuladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi xosil qilinadi»

Allaning har bayti yoki har bandidan keyin «Jonim bolam, alla», «Jonim, bolam, alla» misralari tatakrorlanadi. O'gil bolani «arslonim, bolam, qoplonim, toyim, toychog'im, qulunim» kabi iboralarni qo'shib allalaydilar.

Tol ichinda tanlab olgan,

Tol chovkonim bolam, alla.

Gul ichinda iskab olgan,

Guli rayxonim, bolam, alla.

Yo`lbarslarday yuraklim,
Qoplonlarday bilaklim, alla,
Yaxshi-yomon kunimda,
Menga juda keraklim, alla.

Qiz bolani «shirin so`zim», «jonu dilim», « quralay ko`zim» kabi iboralarni
qo`shib allalaydilar

Alla, bolam, alla, jonu dilim alla.
Ipaklar bo`lib eshilgin,
Kelin bo`lib qo`shilgin.
Alla, oppoq gavhar, qizim, alla,
Ovunchog`im, oy, yulduzim, alla.
Men sening onang mushtipar, alla,
Sensan mening ikki kuzim, alla.

Yor-yorlar. «Yor-yor» o`zbek nikox, to`ylari folklorining musiqiy janri hisoblanadi. Uning paydo bo`lishi, janr tabiati va atamasi, qo`shiqning semantikasi xaqida o`zbek folklorshunosligida ko`pgina fikrlar bayon etilgan. «Yor-yor»lar nikox, to`ylarining ikkinchi bosqichi-qiz uzatish kechasi aytiladigan qo`shiqlardan biri hisoblanadi. «Yor-yor» nafaqat o`zbeklarda, balki qirg`iz, qozok, qoraqalpoq, kabi turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan.

«Yor-yor» ayrim joylarda kelinni olib borayotgan ayollar tomonidan qiz otasining hovlisidan chiqqandan boshlab kuyovning uyiga kirgunga qadar aytilsa, ayrim joylarda «yor-yor»ga kuyov tomon ham qo`shilib, tarafma-taraf bo`lib aytadilar.

«Yor-yor» mavzusi nihoyatda keng bo`lib, ularda kelin va kuyovni ta`rifu tavsiflash, ularning axil yashashi va bolachaqli bo`lishi, shirin turmush qurishlariga undash, turmushda bo`ladigan achchiq-chuchuklarga sabr-qanoat qilish kabi oxanglar bilan bir qatorda qizning ota-ona bag`ridan chiqib, sinalmagan xonadonga borishi, boylik evaziga sotilishi va uning huquqsizligidan nolish kabi ohanglar va shu bilan birga kelin bo`lishdek baxtga muyassar bo`lgan qizga

dugonalarining va boshqalarning orzu-havasmandliklari ham bayon etiladi. «Yor-yor» ijrosining murakkabligi shundaki, «yor-yor»chi ayollar qo`shiqni xolis sifatida qizning o`zi yoki dugonasi tilidan aytadilar. Qo`yidagi «yor-yor»da ana shu holni ko`ramiz:

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor,

Qizni olib yangalari otlanadi, yor-yor.

Qizni olib yangalari tura tursin, yor-yor,

Oq sut bergan onalari rozi bo`lsin, yor-yor.

Ko`z yoshi to`kib ota-onasi va boshqa oila a`zolari bilan nochor xayrlashgan qiz hali ham yig`idan tingani yo`q. Shunda yor-yor aytuvchilar uni yupatishga, qizni hali oldinda obod xonadonlar, shod-xurram odamlar kutayotganini aytib, ko`nglini ko`tarishga o`tadilar.

Yig`lama, qiz, yig`lama,

To`y seniki, yor-yor.

Ostonasi tillodan

Uy seniki, yor-yor.

Ko`rpachasi shohidan

To`r seniki, yor-yor.

Mo`ylablari qilichdek

Yor seniki, yor-yor.

Har bir guruh o`ziga xos xarakterli belgilar ega. Masalan: ijro etilishi ma`lum vaqt yoki sharoit taqozo qiladigan birinchi guruh ashula-qo`shiq janrlarining mavzuyi muayyan marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog`liq bo`lib, undan deyarli chetlashmasligi bilan ajralib turadi. Ba`zan uchrab turadigan bosh mavzudan chetlashishlar lirik o`ychanlik va umumlashtirilgan nasihatgo`yliklar doirasida bo`ladi.

Bulardan «yor-yor» qo`shiqlarixalq, orasida qadimdan mavjud bo`lib, ularning namunalari Muzayyana Alaviyaning «O`zbek xalq, marosimi qo`shiqlari» kitobida ham anchagina yoritilgan.

«Yor-yor»larning mavzu doirasi juda keng bo`lib, unda goh, xazil, goh, quvnoq, goh, yengil yumor, goh achchiq, hajviy ohanglar uchraydi. Bu narsa turmushga chiqmagan qizning, o`tkazilayotgan to`yning va nixoyat uylanayotgan yigitning axloqiy xislatlari, jamiyatda tutgan mavqei, insoniy fazilatlarini kabi ko`pgina jixatlari bilan shartlangan. Qolaversa, «yor-yor»larda qaysi oxangning ustunlik qilishi uning ijrochilari bilan ham bog`liqdir. Masalan, qizni kuyovni- kiga olib kelishda «yor-yor» qo`shig`ining erkin bandlari kayvoni xotin yoki qizning qarindoshi tomonidan aytilsa, u holda kelinning yaxshi fazilatlarini, xulq-atvoridagi go`zal jixatlari, uning kamoloti madx, etiladi. «Yor-yor» kelinning dugonalari tomonidan ijro etilsa, qo`shiqda qizning dard-alamlari, ota-onadan, tug`ilib o`sgan xonadonidan ayro tushishi, zo`rlik bilan turmushga uzatilishi, sevganiga yetolmaganligi xaqidagi mungli oxanglar ustunlik qilishi mumkin. Xullaski, yor-yorda qanday oxang, qanday oxangning ustunlik qilishi asosida juda ko`p sabablar yotadi.

O`zbek «yor-yor»lari ijro uslubi va musiqiy tabiatiga ko`ra bir necha xillarga bo`linadi. Xozircha ularni Fargona, Zarafshon va Xorazm «yor-yor»lari kabi turlarga shartli ravishda bo`lish mumkin.

Keyinchalik jiddiy izlanish va kuzatishimiz tufayli mazkur turlarning miqdori yo ko`payishi, yo qisqarishi mumkinki, bu narsani kelajak ko`rsatadi. Umumiy tarzda aytganda, barcha turdagi «yor-yor»larning oxangi asosida muayyan metroritmik tartibga solgan tor diapazonli kuylar uyg`unligi yotadi. Ularning xar biri o`zining kuy tuzilish tartibi, ohang xarakteri, ritmi, ijro uslubi, shevasi va emotsional ta`sirchanligi bilan farq qiladi.

«E`rkin mavzuli» aytimlar

Bu guruh aytimlarining umumiy tavsifi. Ularning I guruh, ya`ni ma`lum vaziyatga bog`liq qo`shiqlardan farqli jihatlari. Mavzu e`rkinligi va xilma-xilligi, she`riy mazmunning ijro vaziyatlariga bevosita bog`liq e`masligi, qo`shiqlar ohangida kuychanlik xususiyatining ortib borishi, ovoz doirasining nisbatan kengligi, ijro shakllarining yakkaxon va jamoaviy turlari. Jo`rnavoz cholg`ular. Mazkur guruhga taaluqli aytim janrlari - qo`shiq, terma, lapar, yalla, ashula.

Qo'shiq atamasining ikki xil ma'no kasb e'tishi: keng ma'noda umuman aytim (vokal) asar, tor ma'noda – muayyan janr.

Janrga xos tasnifiy belgilari – barmoq vaznidagi she'riy to'rtliklarda kuylanishi, mazmunan turlicha (hajviy, hazilomuz, ishqiy, tarixiy, ijtimoiy va b.) bo'lishi, ovoz doirasi asosan kvinta-seksta oralig'ini bilan cheklanishi va h.k. («Paranji», «Baland tog' ustida», «Yorim ketaman deydi» va b.).

Terma atamasining lug'aviy ma'nosi. «Cho'blama» so'zining unga ma'nodoshligi. Terma janri qaror topishida baxshilar ijodining ahamiyati. She'r asosi, kuylarida nutqdosh-so'zdosh ohanglarning etakchiligi, ovoz doirasining tor qamrovda bo'lishi. Termaning turlari – xalq termalari («Baland tog'lar», «Baxmal kamzu» va b.); baxshilar tomonidan kuylanadigan termalar («Do'mbiram», «qay dostondin aytayin» va b.). Do'mbira – jo'rsoz cholg'u.

Lapar – ikki va undan ortiq ijrochining tarafma-taraf bo'lib, savol-javob tarzidagi aytishuvi. Hazil-mutoyiba, pand-nasihat, sevgi-muhabbat kabi mavzulardagi xalq she'rlarining qo'llanishi, kuylarining ohangdorligi, raqsona ritm-usullarga moyilligi, raqsning hozir bo'lishi va h.k. («Bilakuzuk», «Lapar», «qoraqosh», «Nima-nima, nima deysiz» va b.). Laparlarning an'anaviy to'y marosimlarida kelin va kuyov tomonlari aytishuvida namoyon bo'lishi. Xorazm uslubiga xos xususiyati - yakkaxon laparchi qo'shiqlari («Pardevol», «Galdim sana mehmon bo'lib» va b.).

O'zbek folkloridagi qo'shiqchilik va cholg'u muziqasi janrlari o'z ijro etadigan funktsiyasiga va xususiyatiga binoan ikki gruppaga bo'linadi.

Ma'lum vaqt yoki vaziyat bilan bog'liq xolda ijro etiladigan qo'shiqchilik va cholg'u muziqasi janrlari, ya'ni ma'lum marosim, mehnat protsessi va shunga o'xshaganlar bilan bog'liq bo'lgan kuy va qo'shiqlar. Bularga misol sifatida «yor-yor» va boshqa to'y marosimi qo'shiqlari, «yig'i» va «Sadr», «Mayda» va, «yozi» «Alla» va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Hamma erda ijro etiladigan vokal va cholg'u musiqasi janrlari. U terma, qo'shiq, lapar, yalla va ashula hamda xuddi shunday tusdagi cholg'u musiqasidir. Ular o'z musiqiy tuzilishidagi xususiyatlar, ijro etilish usullari jixatidan aloxida -

aloxida janrlarga bo'lingandir. Bu guruppaga mansub xar bir janrning o'zi aloxida ko'p qirali tematik bilan harakatlanadi. Masalan, kuy janrining o'zi mazmunan musiqa temada, satirik g'nalishda, tarixiy temada, sotsial mazmunida bo'lish mumkin. Lekin bu mazmuniy ko'p qiralik ma'lum melodik va poetik tuzilishiga ega har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari chegarasida bo'ladi.

Lapar kuylari raqsiy xarakterda bo'lib, odatda ikki kishi tomonidan dialog tarzida hamda raqs-o'inlar bilan ijro etiladi. Lekin Xorazmda bir ashulachi tomonidan raqs etib aytiladigan namunalarga nisbatan ham lapar iborasi ishlatiladi.

Raqqli kuylar yalla janrining ham asosini tashqil etadi. Ular ikki turda bo'ladi. Birinchi tur yallalariga diapazoni uncha keng bo'lmagan ko'p jixatdan qo'shiqlarga yaqin bo'lgan kuylar xarakterli bo'lib, naqoratlarning doimiyligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, naqorat qo'shiqlardagi kabi yakka ijrochi tomonidan emas, balki unison xor tomonidan aytiladi. Ayni vaqtda, naqoratlar bilan aytiladigan yallaning asosiy bandlari esa yakkaxon yallachi tomonidan raqs etib ijro etiladi.

Bunday kuplet tuzilishli namunalardan farqli o'laroq, ikkinchi tur yallalariga esa, aksincha, o'z tuzilishi jtxatidan rivojlangan kuylar xarakterli bo'lib, undagi kuy asosiy bandining naqoratlar orasiga olinganini ko'rmaymiz. Bu turdagi yallalar odatda unison xor va yakka xonanda yallachining ma'lum tartibda navbatma – navbat aytilish bilan birga raqs etuvchi sifatida ham yakkaxon yalachi hamkorligida maxsus raqqosa o'yinga tushadi. Bu turdagi yalla kuylarining rivojlanganligi darajasi ko'p tomondan ashula janriga yaqin keladi.

Yalla – raqsbop, raqsning qo'llanishi, ko'pchilik ishtirokining taqozo e'tilishi. Lapardan farqli o'laroq, band-naqorat shaklida bo'lishi va bunda yakkaxon-yallachi bandlarni kuylab raqs tushishi, yallachilar guruhi (sozandalar yoki tinglovchilar) naqoratlarni takrorlab turishi («Yallama-yorim», «Yallo, yallo», «Taralli-yalli» va b.).

I.2. Xalq musiqa ijodiyotini o'rgatishda ustoz-shogird munosabatlaridan foydalanish.

Mamlakatimizda bugungi kunning muxim vazifalaridan biri yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va kamol toptirishdir. Jamiyatimiz kelajagining yaratuvchanlarini eng yuksak insoniy fazilatlar egasi, olijanob axloq, yuqori e'tiqod soxibi qilib tarbiyalash o'ta muximdir. Uzoq o'tmishdan tortib to sivilizatsiyaning eng gullab yashnagan davrlarida ham insoniyat jamiyati oldida yoshlarni nimaga o'rgatish va kanday o'rgatish kerak degan savol to'rganligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir.

Umum ta'limlari musiqa madaniyati darslarida xalq ijodiyotini o'rgatishda ustoz shogirtchilik an'analarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov asarlarida ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari xususida juda keng fikr yuritiladi. Unda Vatanparvarlik, insonparvarlik va o'z eliga sadoqat shaxs ma'naviyati mezonlari sifatida ulug'lanadi Ma'naviy barkamollikka erishish zaruriyati insonning aqliy, axloqiy, ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish nechog'li ahamiyatli ekanini ko'rsatmoqda Kishining chuqur va zamonaviy bilimga, keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi, yuksak ma'naviy kamolot sohibiga aylanishining asosiy sharti sifatida qaralmoqda

Ma'naviy barkamollikning qirralari va asosiy mezonlari, barkamol insonning sharqona fazilatlarini, Sharq xalqlari tarbiya tizimi va uslubining o'ziga xos xususiyatlari milliylikni tarkib toptiruvchi asosiy omillardir.

Muxtaram prezidentimiz barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga to'xtalar ekanlar, "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"- degan edilar.

Vatanparvarlik tushunchasi, Yagona zamin va yagona taqdir tushunchalarining ma'naviy ildizlari, "Vatanni sevmok - iymondandir"

hikmatining mazmuni va unga amal qilish har bir shaxsning insoniy burchi ekani, “Biz fidoyi vatanparvarga tayanamiz”, “Ozod va obod vatan, erkin, farovon hayot” va “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” (I. Karimov) g’oyalarining mohiyatini yoshlar ruhiyatiga singdirish bizning muqaddas burchimizdir.

Iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e’tiqod, poklik, halollik va vafodorlik – shaxs ma’naviy fazilatlari, iymon tushunchasi, iymonli shaxs ma’naviy qiyofasining mohiyati, e’tiqod tushunchasining kishi ongi va dunyoqarashida nechog’li muxim ahamiyatga ega ekanligini, milliy o’zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta’minlash – shaxs ma’naviyati belgilari nimalardan iborat ekanligi, milliy o’z-o’zini anglash millat abadiyligini ta’minlovchi omil ekanligini “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” g’oyasining milliy o’z-o’zini anglashni rivojlantirishdagi ahamiyati nihoyatda ulkanligini yoshlarga singdirishimiz lozim bo’ladi

Ta’lim tizimi – shaxs ma’naviyatini shakllantirishning muhim omili ekanligini unutmagan holda, ta’lim va tarbiya jarayonini uyg’un olib borish maqsadga muvoffiqdir. O’quvchilarni milliy san’atimizga qiziqtirishda ularni usozona san’at ustalari va xalq folklor san’atining chuqur bilimdonlari bilan uchrashuvlar va davra suhbatlari olib borish muxim natijalar beradi.

O’zbekiston xalq artisti G’ulomjon Xojiqulovning xayoti va bastakorlik ijodini o’quvchilarga o’rgatish orqali ustoz-shogird an’analarini shakllantirish mumkin.

G’ulomjon Xojiqulovning ijodiy faoliyatiga ko’z tashlasak, uning asosiy vazifalaridan biri spektakllarni sahnaga qo’yishda ularni musiqa bilan bezashdan iborat bo’lgan. G’ulomjon Xojiqulov 1928 yili Andijon viloyatining Xo’jaobod tumani, Buloqboshi qishlog’ida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. Ma’lumki, musiqali drama teatrida sahnaga qo’yiladigan asarning deyarli 80 foizi musiqa bilan bog’liqdir. XX asrning 50-60-yillarida yaratilgan asarlarning hammasida ham partituralar bo’lmagan. Ko’p hollarda yodaki (og’zaki an’anada) ijro etilgan. Shu bois, spektakllarning musiqiy xususiyatlarini yaxshi biladigan, bilimdon san’atkor bunga bosh bo’lgan. Faoliyati

davomida G'ulomjon aka «Farhod va Shirin», «Tohir va Zuhra», «Layli va Majnun», «Nurxon», «Nodira», «Ravshan va Zulxumor», «Yusuf va Zulayho», «Xolisxon» kabi musiqali dramalarni Andijon teatrida qaytadan tiklashda o'z hissasini qo'shdi. «Nurxon» spektaklini tiklash menga unchalik qiyinchilik tug'dirmadi –deb hikoya qiladi bastakor. «Nurxon» spektaklidagi musiqalarning soni 40 dan oshadi. Men 14-15 yashar bolalik chog'imda ko'plab dramalar musiqalarini yodlab olganman. Ayniqsa, «Tohir va Zuhra», «Alpi o'ziga tortadi va jalb etadi. G'ulomjon aka an'anaviy musiqa ijrochiligi G'ulomjon Hojiqulov uzoq muddatdan so'ng, 1998 yili Andijon teatrida «Layli va Majnun» musiqali dramasini o'sha birinchi tuzatilgan varianti asosida tiklab, sahnaga qo'yishga muvaffaq bo'ladi.

Ustozlik faoliyati. Har bir zabardast san'atkorning ezgu ishlaridan biri ustozlik hisoblanadi. Chunki, ustozlardan olingan bilim, ko'p yillik tajriba orqali erishilgan mahorat va yetuklikda kelajak uchun intilish falsafasi bordir. Shu bois bo'lsa kerak, yoshlar tomonidan ustozlarga tabiiy intilish mavjud. Bilimga tashnalik, ijodiy chanqoqlik bu intilishning asosini tashkil qiladi. G'ulomjon Hojiqulov Andijon teatrida ishlayotgan davrida uning ustozlik faoliyati ham ko'rinish bera boshladi. Ansamblga asarni tanishtirish, teatr aktyorlariga musiqa namunalarini o'rgatish, xonandalarga qo'shiq, ashula va maqom yo'llaridan saboq berish – bularning barchasi ustozlik hisoblanadi.

Shogird tayyorlashda G'ulomjon Hojiqulov juda bag'rikeng ustoz ekanligini e'tirof etish joizdir. Chunki, aksariyat shogirdlari musiqa san'atimiz ijrochiligi amaliyotida ko'zga ko'ringan, yetuklikka erishgan sozanda va xonandalardir. Ustozning o'zi shogirdlari haqida shunday degandi: «Yaxshi ko'rgan shogirdlarimdan biri Abduhoshim Ismoilov. Kamonni zo'r tortadi. O'ziyam musiqani, uning ijodkorlarini, san'atni shu qadar e'zozlaydi. Yuziga qarasam yorug'likni ko'raman Qahramon Komilov, Sharofat Tojiboyeva, Mavluda Boymatova... sanasam ancha bor» .

Ustaning shogirdlarini amaliyot bilan bog‘lab, uch guruhga bo‘lish mumkin:
a) teatr aktyor-xonandalari; b) sozandalar; v) yakka xonandalar.

Ustoz teatr xonandalari bilan juda ko‘p yillar davomida muloqot qilib, ularning faoliyatlari shakllanishida muhim rol o‘ynagan. «G‘ulomjon aka shogirdga «serob»dir, – deydi Rifatilla Qosimov suhbatda – O‘zbekiston xalq artistlari Ma‘rifat Ubaydullayeva, Habiba Oxunova, Kamoliddin Rahimov, O‘rinboy Nuraliyev, Nuriddin Hamroqulov kabilar G‘ulomjon akani haqiqiy ustozim deb biladilar. Bular hammasi teatr jamoasidan kelib chiqqan taniqli xonandalar. Ular bilan birga Mavluda Boymatova, Rustam G‘ofurov, Muxtasar Yo‘ldoshyeva, G‘ulomjon G‘ofurov, Abdullajon G‘ofurov kabi qator teatr aktyorlarini qayd etish lozim. Ular xonandalikda ham o‘z mavqeiga ega bo‘lgan san’atkorlardir». Ijro yo‘liga ega bo‘lganligi uchun ko‘pchilik unga ergashadi, undan bilim oladi. Shu yo‘nalishning o‘zida ikki turga xos sozanda shogirdlarini qayd etish mumkin. Birinchidan, maktabning ijrochilik an‘analarini egallab, pirovardida o‘z mustaqil ijro yo‘lini topgan sozandalar: Abduhoshim Ismoilov, Komunar Komilov, Qahramon Komilov, Ahmadjon Dadayev.

Ikkinchidan, shu maktabni davom ettirayotgan Oybek va Ulug‘bek Hojiqulovlar, Murodjon Norqulov, Sherzod Hojiqulov va hk. «Ularni o‘zbek g‘ijjak ijrochilik san’atining davomchilari sifatida maktab namoyandalari deyishga haqliman», – deb qayd etadi ustoz.

Yakka xonandalar bilan ishlash ustozda eng qamrovi keng jabhadir. G‘ulomjon Hojiqulov ijrochiligini ixtiyor etib, o‘rganaman deganlar turli viloyat va shaharlardan kelib murojaat etadilar. Odatga ko‘ra, an‘anaviy xonandalik amaliyotida azal-azaldan ustozlarning sabog‘ini olish muhim ahamiyat kasb etgan. Uning zahirida «asosli» degan ibora ishlatiladi. Bu esa, bilimli ustozga berilgan bahodir. G‘ulomjon Hojiqulovni ham ana shunday bilimli ustoz, deyishga haqlimiz.

«O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev ham ijrochilik san’atiga xos ko‘p jihatlarida ustadan o‘rnak olganliklari sezilib turadi. Ya’ni, ijroda

qo‘llaniladigan sayqallar, naqsh bezaklar, so‘zlarning burro talaffuzi va hk. Aytish kerakki, Mahmudjonning ustozlari juda ko‘p, lekin uning asosiy ijrochilik uslubidan G‘ulomjon Hojiqulovning soboqlari sezilib turadi».

Bunday ta’rifni ularning barcha shogirdlariga ham berish mumkin. Chunki, bastakorning o‘z ustozlari an’analari zahirida shakllangan ijro uslubi shogirdlar ijrosida qaysidir bir tarafi bilan namoyon bo‘lib turadi. Ana shunday shogirdlardan Avazbek Mahmudov, Xurshid Hasanov, Jo‘raxon Toshxo‘jayev, Ahmadjon Dadayev ijodlarini alohida e’tirof etish joizdir.

Bastakorlik faoliyati – har bir ijodkorning abadiyatga yetaklovchi sohadir. G‘ulomjon Hojiqulov bu sohada musiqa merosimiz an’alarini davom ettirgan holda, musiqali drama janri qonuniyatlari asosida 50 dan ortiq ashula va qo‘shiqlar yaratdi. Bastakor ijod qilgan har bir asar o‘z ijrochisiga mos tarzda yaratilgan. Bunday uslub odatda, spektakllarga musiqa yaratish jarayonida ko‘proq amalda ishlatiladi. Asosiy qahramonga xos obrazni ifodalash, uning ichki tuyg‘ulari, ruhiy Bastakor o‘z ijodida turli avlod shoirlarining she’riyatiga murojaat etadi. Xususan, mumtoz shoirlardan Sakkokiy, Muqimiy, Nozima, Atoiy, Yusuf Sayramiy, Hofiz she’rlariga murojaat etsa, zamondosh qalam sohiblaridan Habibiy, Sobir Abdulla, Vosit Sa’dulla, Erkin Vohidov, Po‘lat Mo‘min, G‘afur G‘ulom, Akmal Po‘lat, Olimjon Xoldor, Alijon Salohiddinov kabi qator shoirlar she’riyatiga asoslanib asarlar yaratadi. G‘ulomjon Hojiqulov zamonaviy musiqa san’ati jarayonidagi ohang o‘zgarishlarini nozik did bilan his etishi, idrok qilishi barobarida zamonamizga hamohang musiqa asarlarini yaratishga erishdi. Endilikda serqirra va sermahsul ijodkorning musiqa merosi o‘nlab qo‘shiq va ashulalar, kuylar, bir qator musiqali drama, musiqiy-sahna asarlari kabi ko‘plab asarlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, san’atkor yuzga yaqin qo‘shiq va ashulalar, maqom ashula yo‘lidagi asarlarni ijod etdi. «Jafo qilma» (Sakkokiy so‘zi), «Kim ekan u» (Vosit Sa’dulla she’ri), «Xirom etgil» (Dilafkor so‘zi), «Qo‘shiq aytaylik» (Akmal Po‘lat so‘zi), «Asli yoz bo‘lmayo» (G‘afur G‘ulom she’ri), «Keldi yoqimli bahor» (Nozima so‘zi), «Gul uzatsam» (Po‘lat Mo‘min so‘zi), «Ko‘z qorayguncha» (Hofiz g‘azali), «Lola

sayli» (Erkin Vohidov soʻzi) va boshqalar shular jumlasidandir. «Diydor» (Rahbarxon Fayziboeva asari), «Vatan madhiyasi» (Mirzakarim Boboyev asari) va «Mehrobdan chayon» (Abdulla Qodiriy asari) kabi musiqali drama va dramatik spektakllarga musiqa yozdi.

Bastakorning asarlari turli shakl va usullar zahirida yaratilgan. Lekin, har bir ijroda ustozning talqiniga xos uslub alohida sezilib turadi. Ana shu jihatlari asarlarning tahlilida yaqqol namoyon boʻladi.

Gʻulomjon Hojiqulovning ijrochilik amaliyoti uning ijodkorlik tafakkuriga sezilarli taʼsir koʻrsatgan va bu holat ashula hamda qoʻshiqlarning ijro etilishi xususiyatlarini belgilashi barobarida, baʼzan, joʻrnavez cholgʻuni nisbatan mustaqil darajaga qadar yuksaltiradi.

Gʻulomjon Hojiqulov ijodida turfa janrlardan oʻlaroq qoʻshiqchilikka asosiy oʻrin beriladi. Aynan shu nuqtada bastakorning ijodiy intilishlari hamda shunga boʻysungan badiiy vosita ifodalari oʻz aksini topadi. Gʻulomjon Hojiqulovning qoʻshiq va ashulalari mazmunan serqirra boʻlib, barchasida ona diyor, Vatan, qahramonlik, mehnat, sevgi-muhabbat va boshqa mavzular tarannum etiladi. Lekin, bastakorning ijodkorlik xazinasida lirik mavzudagi ashulalar ham alohida oʻrin tutadi. Gʻulomjon tomonlaridandir. Shu maʼnoda, bastakor ashulalarini ikki guruhga boʻlish mumkin:

1. Oʻzbek musiqa merosi, ayniqsa, qoʻshiqchilikdagi anʼanalarga asoslangan qoʻshiq-ashulalar (masalan, «Keldi ayyomi bahor», «Qoʻshiq aytaylik») – anʼanaviy yoʻnalishdagi asarlar;

2. Original, zamonaviy kuy-ohangli qoʻshiq-ashulalar (mualliflik asarlari).

Gʻulomjon Hojiqulov ashula va qoʻshiq sheʼrlarini tanlashga alohida eʼtibor bilan yondashadi. Sheʼr matnining mazmunan teranligi, soʻz ifodaviyligi, uning musiqiyligi va kuyga mos kelishi bastakor uchun asosiy omil boʻlib kelgan. Shunday matnlarni izlash jarayonida Gʻulomjon Hojiqulov mumtoz va zamonaviy shoirlarning sheʼriyatiga murojaat etadi, hamda ularga asoslangan holda ashula-qoʻshiqlar ijod etadi.

Janr nuqtai nazaridan qaraganda G‘ulomjon Hojiqulov ashulalari xalq ijodiyoti va mumtoz musiqa an‘analariga sodiq qoldi. Binobarin, uning qo‘shiqlari orasida qo‘shiq, yalla, lapar, ashula janrlari an‘analariga uzviy bog‘langan namunalar oz emas. Aksariyat qo‘shiqlar zamonaviy mazmun bilan bog‘liqdir. E‘tiborga molik tomoni shundaki, bastakor o‘z asarlarida ko‘proq ashula va maqom ashula yo‘llarida ijod etadi, ulardagi musiqiy vositalar, ijro uslublari juda boy va kengdir. Bu o‘rinda kuyga alohida e‘tibor qilish G‘.Hojiqulovga xos. Uning kuylari nozik tabiatli, vazmin, dardli, asta-sekin rivoj oluvchi, zanjirband jumalardan iboratdir. Rivojlangan shakllarga moyillik, ladritmik tuzilmalarining an‘anaga yaqinligi ham o‘ziga xosdir. Ijro uslublari xonandaning ovoziga mos kelishi, cholg‘u va ovozning jarangi bastakor ijodining navqiron davridayoq muayyan tus olib, uning qo‘shiqchilik ijodining turli davrlarida ham o‘z kuchini saqlab qoldi va rivoj topdi. G‘ulomjon Hojiqulovning bastakorlik ijodida o‘zbek ashula yo‘llarining turli shakllari o‘z ifodasini topgan. Lekin, uning ijro uslubiga xos talqin topishi muqarrarligi sababli muayyan bir yo‘nalish uning uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Ma‘lumki, aytim janrlarining turlari ko‘p. Ularning bastakor ijodida yuzaga kelishi nafaqat musiqa qonuniyatlariga, balki so‘z matnlarining qaysi uslubga xosligiga ham bog‘liqdir. Masalan, barmoq vaznida yozilgan she‘rlar o‘z o‘rnida ko‘proq qo‘shiq, lapar va termaga xos tarzda G‘ulomjon Hojiqulovning sozanda, xonanda va bastakor bo‘lib shakllanishida teatrning juda katta ta‘siri bor. Milliy cholg‘u ansambli, teatrdagi ijodiy muhit va ijrochilik ruhiyati bastakor ijodiyotining yangi qirralarini kashf etdi, desak mubolog‘a bo‘lmaydi. Shu bois, G‘ulomjon Hojiqulov yaratgan asarlar juda xilma-xildir. Ularda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga xos jihatlarni, xalqona yondashishlarni, ustozga xos fikrlashni, ustoz bastakorlar an‘analarini kuzatish mumkin. Qolaversa, ijodda bu muqarrardir, buni ijrochilik maktabiga qiyoslash to‘g‘riroq bo‘ladi.

«Jafo qilma» – bastakorning mumtoz ashulalar namunasiga xos tarzda yaratgan yetuk asarlaridan hisoblanadi. Ashula mumtoz shoir Sakkokiyning 16

bo'g'inli «qilma» radifli g'azaliga asoslangan. 5 baytdan iborat g'azal bastakor tomonidan ashula shaklida ohangga solingan. Unchalik murakkab bo'lmagan shakl bo'lgani uchun rivojlanish tarkibi pog'onama-pog'ona tuzilib, juda ko'p qaytarishlar bilan tasdiqlanib boradi.

Asarning tarkibiy tuzilishi 5 xatdan iborat bo'lib, har bir xat asar shaklining ma'lum bir bo'lagiga to'g'ri keladi. Umumiy ko'rinishda ashulaning tuzilishi va rivojlanish pog'onalariga mos kelishi ko'zga tashlanadi. Har bir xat daromad, miyonxat, dunasr, avj va furovardga ham matn nuqtai nazaridan va ohang rivoji tizimi doirasida mosdir.

«Klassik g'azallar yetti-sakkiz va undan ko'p (o'n ikkitagacha) baytlardan iborat bo'ladi. G'azal maqom yo'llariga solinib aytilganda, odatda, olti-yetti bayti olinadi. Musiqiy shakl ana shu hajmga mo'ljallab ishlangan bo'ladi» .

Maqom ashula qismining shakli shu ko'rinishda bo'ladigan bo'lsa, ashulalar unga nisbatan soddaroq tus oladi. Birinchidan, ashulalarga g'azalning 4-5 bayti olinadi (ko'p holatlarda 5 ta bayt olinadi) va ularning har bir bayti ma'lum ichki tarkib qismlarida ohangga solinadi. Buni biz «Jafo qilma» ashulasi misolida ko'rib turibmiz. Lekin, bastakorning uslubi va yo'li o'zgacha talqinni namoyish etmoqda. Asar mi miksilodik lad tizimiga asoslangan:

Zaminida «zarb ul-qadam» usuli turadi. Bastakor ushbu ashulani aynan Saraxborlarga qiyosan yaratganligi shubhasizdir. Uning usuli:

«Jafo qilma» musiqiy namunasining umumiy ko'rinishi, ashulaning she'riy baytlari taqsimotida maqom ashulalariga nisbatan juda katta o'zgarishlar yo'q, desa ham bo'ladi. Bastakor har bir tarkibiy qismni (xatlarni) o'z uslubiga xos tarzda tuzib, asosiy boshlang'ich bosqichga qaytarib turadi. Bu esa, doimiy qaytarish kabi ko'rinish oladi.

Asar o'n taktli cholg'u daromadi bilan boshlanadi. O'ziga xos davriya shakliga asoslangan daromad asarni lad tizimi, ohang tizimi va o'lchov jihatlarini tasdiqlovchi qism vazifasini ham o'taydi.

O'zbekiston san'ati haqida gap ketganda dastavval Jo'raxon Sultonov, Ma'mirjon Uzoqov, To'xtasin Jalilov, Abbas Bakirov, Komiljon Jabborov, Yunus Rajabiy, Vahobjon Azimov kabi siymolari esga keladi. Bastakorlik an'analarini o'rganish va munosib hayotga tadbiiq etish doimo musiqa olamida dolzarb masala bo'lib kelgan. Shukurkim, bu muammoni hal qiluvchilar safi ancha keng. Shu o'rinda O'zbekiston xalq artisti mohir bastakor, sexrgar kamonchi xonanda G'ulomjon Xojiqulov o'zbek musiqa ijrochiligi san'atiga samarali xissa qo'shib kelayotgan mohir sozanda va xonanda, zamonimizning hassos bastakorlaridan biridir. Andijon g'ijjak ijrochiligi san'atining yorqin namoyondasi, an'anaviy ijrochilik maktabining ustoz san'atkoridir.

Bastakorlik faoliyati har bir ijodkorning abadiyatga etaklovchi sohasidir. G'ulomjon Xojiqulov bu sohada musiqamerosimiz an'analarini davom ettirgan holda, musiqali drama janrini qonuniyatlari asosida 50 dan ortiq ashula va qo'shiqlar yaratadi. Bastakorning xar bir yaratgan asarlari alohida ijrochisini topgan va shunga xosiyaratilgan. Bu uslub odatda spektakllarga musiqa yaratish jarayonida ko'proq amalda ishlatiladi. Asosiy qaxramonga xos obrazni ifodalash, uning ichki tuyg'ulari ruhiyatini ochib berishga loyiq musiqiy oxanglar asosiy mezon sifatida gavidalanishi lozim. Shu bois G'ulomjon Xojiqulov yaratgan asarlar o'z ijrochilari bilan birga yaratilgan deyishimiz mumkin. Bastakor o'z ijodida turli avlod shoirlarining she'riyatga murojat etadilar. Ular orasida mumtoz shoirlardan Sakkokiy, Muqimiy, Nozima, Atoiy, Yusuf Saryomiy, Xofiz she'rlariga murojat etsa, zamondosh namoyondalardan Habibiy, Sobir Abdulla, Vosit Sa'dulla, Erkin Vohidov, Po'lat Mo'min, G'ofur G'ulom, Olimjon Xoldar, Alijon Saloxiddinov kabi qator shoirlar she'riyatiga asoslab asarlar yaratadi.

G'ulomjon Xojiqulov zamonaviy musiqa san'ati jarayonidagi oxang o'zgarishlarni did bilan nozik xis etishi idroklari barobarida zamonamizga hamohang musiqa asarlarini yaratishga erishdi. Endilikda sermahsul va serqirra ijodkorning musiqa merosi o'nlab qo'shiq va ashulalar, kuylar, bir qator musiqali drama, musiqa sahna asarlar kabi ko'plab asarlarni o'z ichiga oladi. Xususan, san'atkor yuzga yaqin qo'shiq va ashulalar, maqom ashula yo'lidagi asarni ijod

etdi. Shuningdek, “Jafo qilma” (Sakkokiy soʻzi) “Kim ekan u” (Vosit Saʼdulla sheʼri), “Xiram etgil”(Dilafkor soʻzi), “qoʻshiq aytaylik” (Akmal Poʻlat soʻzi), “Asli yoz boʻlmayo” (Gʻofur Gʻulom sheʼri), “Keldi yoqimli baxor” (Nozima soʻzi) “Gul uzatsam” (Poʻlat Moʻmin soʻzi) “Koʻz qorayguncha” (Xofiz gʻazali), “Lola sayli” (Erkin Voxidov soʻzi) va boshqalar. Musiqali drama va dramatik spektakllarga yozgan musiqalari orasida “Diydor” (Gaxbarxon Fayziboeva asari) “vatan madxiyasi” va “mexribon chayon” (Abdulla Qodiriy asari) asarlari ham mavjud.

Gʻulomjon Hojiqulovning bastakorlik ijodida oʻzbek ashula yoʻllarining turli shakllari oʻz ifodasini topgan. Lekin, uning uslubiga xos talqinni topishi muqarrarligi sababli muayyan bir yoʻnalish uning uchun asos sifatida xizmat qiladi. Ustoz san'atkor Gʻulomjon Hojiqulovning mehnatlari, san'atimiz rivojidagi qoʻshgan hissa hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. 1970 yili “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist”; 1988 yili esa “Oʻzbekiston xalq artisti”, faxriy unvonlari, 1999 yili “El yurt xurmati ” ordeni, 2001 yili Oʻzbekiston Respublikasi “Mustaqilligining 10 yilligi” medallari bilan taqdirlandi.

“Vatanimiz istiqbolga erishgandan buyon nafaqat men, soʻz yuritadi Gʻulomjon Hojiqulov, -balki barcha Andijonlik san'atkorlar taqdirida muhim oʻzgarishlar boʻldi. Ya'ni, biz san'at ahliga xurmat va etibor ortdi. Ishlashimiz va ijod qilishimiz uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Kelajagimiz nixoyatda yoruh, unda yashovchi insonlar baxtli xayot kechiradilar, deb oʻylayman”.

Darhaqiqat, Gʻulomjon Hojiqulov oʻzbek musiqasi rivojiga muhim xissa qoʻshgan san'atkordir. Uning ijodiy uslubi oʻziga milliy musiqa anʼanalarining eng ilgʻor jihatlarini mujassam etdi. Bu anʼanalarni esa oʻz ustozlari-etuk sozanda, xonanda va astakorlardan bekamu-koʻst oʻzlashtirib, zamonaviy musiqa ijodiyotida sozanda, xonanda, bastakor va ustoz-murabbiy sifatida mehnat qilib zamonamizga ham ohang musiqa durdonalarini ijod etishga erishdi.

II Bob Musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarga cholg'u ijrochiligini o'rgatishning maqsad va vazifalari.

Musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarga cholg'u ijrochiligini o'rgatishning maqsad va vazifalari muxim xususiyatlarga egadir. Umumta'lim maktabining har bir bosqichi o'qituvchi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda, umumdidaktik metodlardan foydalanishi, bosqichlararo uzluksizlikni ta'minlashi, turli xil metodlardan unumli foydalanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi kerak. Uzluksiz ta'limningayrim bosqichlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish muhimdir. Chunki o'rganadigan mavzulari, bolalarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari bu sinflarda deyarli bir xil bo'ladi. Shuning uchun ham 5-6-sinflarni uzviy holda o'rganish mumkin. 4-sinfda boshlang'ich maktabning tugaganligini hisobga oladigan bo'lsak, 5-sinfda bolalar bevosita yangi bosqichga, ya'ni o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichiga o'tadilar.

Bu sinfda barcha fanlar bo'yicha o'qituvchilarning o'zgarishi, sinf rahbarining o'zgarishi o'quvchilarning yangi sharoitlarga ko'nikishini talab qiladi. Bu jarayon ayrim o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi.

5-6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga umumiy xarakteristika Pedagogik-psixologik adabiyotlardan ma'lumki, bu yosh o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'smirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfiga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, lekin o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinfga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi ham mumkin. O'smirlik davri «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushkul», «qiyin» davr deb ham nomlanadi. O'quvchilarda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etish joiz. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ro'y beradi. O'smir shaxsi rivojlanishning muhim omili – uning shaxsiy faolligi – shaxsiyat omilidir. Bu davrda o'smirning o'z-o'zini anglashi jarayoni faol va mashaqqatli kechadi. O'smirning yoshidagi muhim

o'zgarishlar uning organizmidagi jismoniy o'sish va biologik voyaga etish bilan bog'liqdir. O'smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me'yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o'quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko'ngil va madaniyatli o'qituvchilarni yoqtiradilar. O'smir organizmi o'sishidagi sakrashlar, endokrin tizimdagi o'zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o'sishida muhim o'zgarishlarga olib keladi. Musiqiy tarbiyada bu yosh ovoz apparatining mutatsiyasi davri bilan bog'liq. Ovoz apparati yo'g'onlashadi, ovoz ayniqsa, o'g'il bolalarda sezilarli darajada pastroq bo'lib boradi. Shuningdek, ovozning buzilish holatlari ham shu davrga xosdir. Bu yoshda ovoz apparatining haddan ortiq yuqori tessiturasidan qochib, vokal repertuari tanloviga ehtiyotkorona yondashish lozim. Endi mutatsiya xodisasiga batafsil to'xtalib o'tamiz. O'g'il bolalarda mutatsiyaning boshlanish davri, odatda jinsiy bolog'atga etish davriga to'g'ri keladi. Mutatsiyaning boshlanishi ko'p sabablarga bog'liq, juladan, iqlimga ham bog'liqdir. Mutatsiya davrida hiqildoq tez o'sadi. Ayniqsa qalqonsimon tog'ay juda kattalashadi. Boylamlar ikki barobar 13-14mm dan 24-25mm gacha kattalashadi. Bu davrda hiqildoq kasallikka chalinuvchan bo'lib qoladi. Ovoz ehtiyot qilinmasa, hiqildoqda turli xil kasalliklar paydo bo'lishi mumkin.

Mutatsiyaning turi va davomiyligi hammada har xil kechadi. Bolalarda mutatsiyaning boshlanganligini o'z vaqtida payqash va vokal asarlarini to'g'ri tanlash o'ta muhim shartlardandir. Mutatsiya boshlanganligining dastlabki belgilari: ovozning nimjon bo'lib qolishi, intonatsiyaning buzilishi, qo'shiq aytish xohishining yo'qolishi, ovozning xirrilab qolishi. Mutatsiya hammada har xil, ayrim bolalarda engil, ayrim bolalarda esa og'ir kechadi. Bir me'yorda ovozning yo'g'onlashib borishi bu yengil mutatsiyadan darak bersa, ovozning bir yo'g'onlashib, bir ingichka yangrash, gohida ovozning chiqmay qolishi og'ir mutatsiya belgilaridir. Kuztishlarga ko'ra ko'pincha, diskant ovozlar basga, alt ovozlar tenorga aylanadi. qizlarda ham mutatsiya davri bo'lib o'tadi. Biroq ularda

mutatsiya o'g'il bolalarnikidek sezilarli o'tmaydi. qizlarda mutatsiya bilinmay, juda sekin o'tganligi tuffayli ularning ovoz o'zgarishlarini payqash mushkul. Bu davrda og'ir kuylarni kuylashga berish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ovozni haddan tashqari zo'riqtirib qo'yish natijasida, qizlarning ovoz paylarida bog'lam, tugunchalar paydo bo'lishi va keyinchalik mulaqo ovozning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi mutatsiyaning har xil – sezilarli yoki sezilmasdan o'tishini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ovoz apparatlarini zo'riqtirmay, ularga engil kuy va qo'shiqlarni berishi kerak. 5-6-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Jismoniy o'sish ham ovoz apparatining o'sishi ham ravonligini yo'qotib, notekis ravishda shakllanadi. Budaavrda mutatsiya davom etadi. Shuning uchun ham ularga ovoz diapazoni keng, baland dinamikadagi asarlarni kuylash tavsiya etilmaydi. O'quvchilar qo'shiqlarni past-yarim ovozda baqirmasdan, ehtiyotkorlik bilan kuylashlari kerak. Bu sinf o'quvchilari bilan bir ovozli qo'shiqlar bilan birga ikki ovozli qo'shiqlar ustida ham ish olib boriladi. Buning uchun kichik hajmdagi kanonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. qo'shiqlar o'rtacha sur'atda yozilgan bo'lishi, katta intervallarga sakrashlarning bo'lmasligi bu davrda muhim ahamiyat kasb etadi. 5-6-sinfda musiqa tinglash faoliyati Musiqiy asarni tinglash jarayonida o'quvchilarga asarni tinchlikni saqlagan holda, gaplashmay madaniyatli tinglash odobini o'rgatish muhimdir. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda magnit tasma yoki o'qituvchining jonli ijrosi orqali eshittiriladi. Musiqa yangrashi bilan barcha sinfdagilar, jumladan o'qituvchining o'zi ham berilgan holda, barcha ishlarini chetga surib diqqat bilan tinglashi kerak. Bu yoshdagi o'quvchilar murakkab ichki dunyo, his-tuyg'ular, ichki kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhidagi, tragediya va satira kabi janrlardagi musiqiy asarlarni bajonudil kuylaydilar. O'smirlar hissiyotga beriluvchan, ta'sirchan bo'lganligi sababli, chuqur falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan, orzu va baxt-saodat uchun

kurash, ilk muhabbat kechinmalari, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqa ularga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi v jiddiy mushohada qilishga undaydi. Beshinchi sinfda o'quvchilarning musiqiy dramaturgiya haqidagi tushunchalarni rivojlantirish va tasavvurlarini uyg'otish muhim vazifadir. "Musiqa madaniyati" dasturiga kirgan buyuk g'oyalarni aks etuvchi T.qurbonovning "Shiroq" baleti, U.Musaevning "To'maris" baleti, T.Jalilovning "Tohir va Zuhra" operasi, S.Yudakovning "Mirzacho'l" vokal-simfonik syuitasi, L.Betxovenning "qahramonlik", A.Motsartning 40-simfoniyasini tinglab idrok etish jarayonida, o'quvchilar bu asarlardagi aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to'qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. 6-sinfda esa o'quvchilar bevosita mumtoz musiqa haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Mumtoz musiqa namunalaridan tinglaydilar. Shuningdek, sharq xalqlari mumtoz musiqalaridan namunalar tinglab o'z bilimlarini oshiradilar.

5-6-sinfda musiqa savodi faoliyati

Musiqa savodi faoliyatida asosan musiqa nazariyasiga oid bilimlar o'rgatiladi. O'quvchi musiqa savodini o'zlashtirib borar ekan, u musiqiy asarlarni bemalol nazariy jihatdan tahlil qila oladi. Bu sinflarga kelib o'quvchilar tovush, ritm, o'lchov, sur'at, alteratsiya belgilari, major va minor ladlari, ikkita belgigacha bo'lgan tonliklarni biladilar. O'qituvchi o'quvchilarning mazkur faoliyatda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini boshqa faoliyat turlarida unumli qo'llay bilishi kerak. Bu o'z navbatida o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi hamda boshqa faoliyatlardagi bilimlarini ham orttiradi. 5 sinf yil mavzusi: Kompozitorlik musiqa janri.

1-chorak O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati.

2-chorak Simfonik orkestr. Musiqada vokal simfonik janrlar.

3-chorak Sahnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san'ati. Musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak tomoshalar.

4-chorak Opera san'ati. O'zbek musiqasida opera janri.

6 sinf Yil mavzusi: Mumtoz musiqa.

1-chorak Mumtoz musiqa haqida tushuncha.

2-chorak Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari.

3-chorak Sharq xalqlari mumtoz musiqasi namunalari.

4-chorak Evropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv.

Savol va topshiriqlar:

1) Beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.

2) Beshinchi va oltinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladiq

3) qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerakq

4) Mutatsiya xodisasiga ta'rif bering.

5) Beshinchi va oltinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilarq

6) Beshinchi va oltinchi sinfdagi musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilganq

7) Beshinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

8) Oltinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.

9) YUqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.

10) YUqoridagi sinflar o'quv dasturiga yana qanday kuy va qo'shiqlarni kiritgan bo'lar edingizq

7-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

7-sinf o'quvchisiga xarakteristika

7-sinf o'smirlik davriga to'g'ri kelib, qiyin o'quvchi davr hisoblanadi.

Bu ko'pgina olimlarning kuzatishlarida o'z aksini topgan. O'quvchilar bu yoshda jismoniy etiladilar. Bu davrda musiqa darslarini o'smirning holatiga qarab tashkillashtirish talab etiladi. Bu davrda o'quvchilarda ovoz mutatsiyasining eng rivojlangan paytidir. Ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Ovoz apparatining o'sishi ravonligini yo'qotib, notekis rivojlanadi. Ayrim o'quvchilarda mutatsiya 5-6-sinflarda boshlangan bo'lsa,

ayrimlarida endi boshlanadi. Bu o'qituvchidan nihoyatda katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki sinfning yarmi mutatsiyaning so'ngi bosqichida bo'lsa, qolgan yarmi boshida bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarning ovoz diapazoni yuqori ovozlarda – 1 “do”dan 2 “mi”gacha, quyi ovozlarda – kichik oktava “si”dan 2 oktava “re” gacha bo'ladi. 7-sinf o'quvchilarining ichki dunyosi ancha shakllangan va rivojlangan bo'ladi. Ularning dunyoqarashi kengaygan bo'lib, o'z fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladilar. Musiqiy didlari ham yaxshi shakllangan bo'lib, o'qituvchi repertuar tanlashda ularning qiziqishlarini hisobga olmog'm kerak. 7-sinf o'quvchilari ixtiyoriy diqqatga ega bo'ladilar va qiyinchiliklarsiz yirik musiqa shakllarini idrok eta oladilar (uvertyura, simfoniya, sonata, maqom va hokazo). O'quvchilar asarga nisbatan paydo bo'lgan his-tuyg'ulari, tasavvurlarini hikoya tarzida aytib bera oladilar. Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari kompozitor yoki bastakor haqida referatlar, bukletlar va nutqlar tayyorlay oladilar. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning mana shunday ijodiy xislatlaridan unumli foydalangan holda, ularni musiqiy to'garaklar, xor jamoalariga jalb qilishi, qolaversa, o'quvchilar orasida o'tkaziladigan tanlov, musobaqa va olimpiadalarga jalb etishi muhim. Bu o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini orttirib qolmay, balki etti yil davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

7-sinfda “Musiqa madaniyati” darslarining tuzilishi

7-sinfdagi musiqa darslari umuta'lim maktablari uchun belgilangan musiqa ta'limining so'nggi bosqichi hisoblanadi.

7-sinfda musiqa darslari asosan, uchta faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi.

Xususan:

1. qo'shiq kuylash.

153

2. Musiqa idroki (tinglash).

3. Musiqa savodi.

Mazkur sinfda avvalgi sinflarda o'tilgan musiqa materiali yakunlanadi va mustahkamlanadi. Musiqa darsining tuzilishi asosan, ijrochilikni tashkil etsada,

musiqa savodi va idrokisiz to'laonli ijroga erishib bo'lmaydi. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda bir qator ijobiy fazilatlar shakllanadi.

Musiqa darslari quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi:

- dars mavzusi (yil, chorak va dars avzusidan kelib chiqqan holda);
- darsning turi (to'rt faoliyatdan biri ustuvor bo'ladi);
- darsning maqsadi: ta'limiy va tarbiyaviy;
- qo'llaniladigan adabiyotlar;
- darsning olib borilishi;
- amaliy ishlar;
- yangi mavzuni o'tish (barcha faoliyatlarni o'z ichiga qamrab oladi);
- o'tilgan mavzuni mustahkamlash;
- uyga vazifa berish va o'quvchilar bilimni baholash.

Barcha sinflarda yil va chorak mavzulari mavjud bo'lib, 7-sinfning yil va chorak mavzulari quyidagicha:

Yil mavzusi: Xalq musiqasining maxalliy uslublari.

1-chorak: qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand vohalarining musiqiy

uslublari bilan tanishuv.

2-chorak: Farg'ona, Toshkent hamda Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv.

3-chorak: Maqom. Shashmaqom.

4-chorak: Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari.

7-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati

7-sinfda qo'shiq kuylash jarayonida o'tgan sinflardagi vokal-xor malakalari mustahkamlanadi va aralash xorda kuylashning boshlang'ich malakalari shakllanadi. Shuni e'tiborga olshi kerakki, bolalarning ovoz apparati o'zgarishi natijasida ular o'zlarining "yangi ovoz"laridan uyalib, qo'shiqni kuylamasligi mumkin. Bu paytda o'qituvchi ehtiyotkorlik bilan yondashib, kerakli chora-tadbirlarni qo'llashi kerak.

Bu davrda sinfdagi o'quvchilar ovozi uchga bo'linadi: 1) "do" birinchi oktavadan "mi" ikkinchi oktava diapazonidagi ovozlar; 2) "si" kichik oktavadan "re" ikkinchi oktavagacha bo'lgan ovozlar; 3) "mi" ("re") kichik oktavadan "si" ("do") kichik oktavagacha (mutatsiya davrida bo'lgan ovozlar). Shu sababli o'qituvchi jamoa bo'lib kuylash jarayonida, ayniqsa mutant ovozli bolalarning to'g'ri kuylayotganligini nazorat qilib turishi lozim. qo'shiq kuylash faoliyati uchun tavsiya qilingan dastur – janr va musiqiy obrazlarning xilma-xilligi tufayli o'quvchilarning badiiy didini rivojlantirishga katta ta'sir qiladi. Ko'povozlilik – jamoa bo'lib kuylash faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Ushbu usulda kuylash 7-sinf o'quvchilari uchun juda foydalidir. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarning ovoz imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, jamoa bo'lib kuylash jarayonida ular o'z ovozlari ehtiyot qilish va ortiqcha zo'riqtirmay kuylash imkonini beradi. Ko'povozli asarlarni kuylashdan avval, ko'p ovozlilik elementlari bo'lgan bir qator mashqlarni kuylash, avvalgi sinflarda o'tilgan osonroq bo'lgan ko'povozli kuylarni qaytarish yaxshi natijalar beradi.

7-sinfda musiqa idroki (tinglash) musiqa idroki jarayoni musiqa mazmunini eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir. Yuqorida aytilganidek, 7-sinf o'quvchilarida tinglash jarayonida ixtiyoriy diqqat ancha rivoj topgan bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar ancha katta hajmdagi asarlarni uzoq muddat tinglay oladilar. Shuni hisobga olgan holda 7-sinfda mumtoz musiqiy merosimizga salmoqli o'rin ajratilgan bo'lib, o'quvchilar o'zbek maqomoti va maxalliy uslublarni o'zlashtiradilar. Ular dars jarayonida turli xil xalq va kasbiy ashula namuna (Mustahzod, Savti suvora, Mug'ulchai Dugoh qashqarchasi va hoqazo)lardan tinglaydilar. Bu kabi namunalarni tinglash o'quvchilarda o'zbek mumtoz musiqa merosiga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularning estetik dunyoqarashini boyitadi. Bu sinfda o'quvchilarga uyga beriladigan vazifalar ham ahamiyatlidir. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularga simfoniya, kantata, operalardan, maqomlardan, katta ashulalardan namunalar tinglashga berishi mumkin. Uyda mustaqil ravishda tinglangan asarlar sinf dars jarayonida birgalikda tahlil qilinishi kerak hamda o'qituvchi o'quvchilarning xato

va kamchiliklarini tuzatib borishi lozim. Bu o'qituvchiga o'quvchilarni baholash va ularning bilim darajalarini aniqlashga yordam beradi.

7-sinfda musiqa savodi jarayoni

7-sinf musiqa darsiga qo'yilgan talablarga binoan o'quvchilar musiqiy asarning mazmuni, xarakteri, janr va shaklini, lad va tonligini aniqlay olishlari zarur. Mazkur sinf o'quvchilari musiqa savodi faoliyati orqali o'zlashtirgan materiallarini takrorlaydilar va mustahkamlaydilar. Bunday tashqari yangi tushuncha va atamalar bilan ham tanishadilar (katta ashula, dugoh, segoh, tuzuk, ufar va hokazo). Har bir chorakdan so'ng yozilgan musiqa lug'ati bolalar uchun juda qulaydir. 7-sinfdagi muhim talablardan biri – o'quvchilarning notaga qarab nutqlay olishlaridir. Ular major va minor ladlarida bemalol solfedjiolab kuylay olishlari kerak. Bu faoliyat uchun murakkab bo'lmagan asarlar tavsiya qilinadi. 7-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi musiqa asarlarini tahlil qilishni o'rganadilar. Ular musiqiy asarning kaliti, tonligi, o'lchovi, ritmi, tempi, mazmuni, xarakteri va janri haqida ma'lumot bera olishlari kerak.

Savol va topshiriqlar:

- 1) Ettinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
- 2) Ettinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladiq
- 3) Mazkur sinfda qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va repertuarga qaysi mavzudagi qo'shiqlar kiritilganq
- 4) Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazonlari qanday bo'ladiq
- 5) Ettinchi sinfda o'quvchilar tinglashi uchun qaysi mavzu va janrdagi kuy va qo'shiqlar tavsiya etiladi va nima uchunq
- 6) Ettinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilganq
- 7) Ettinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 8) Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang

II BOB. Musiqa madaniyat darslarida o'zbek musiqiy folklori cholg'ularini o'rganishdagi tutgan o'rni.

O'zbek milliy musiqiy cholg'ulari rang-barangligi, turli-tumanligi, sadolanish xususiyatining o'ziga xocligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o'zbek milliy ijrochiligida qo'llanilayotgan cholg'ular turlarining nihoyatda boyligi biz yashab turgan zaminimizda har bir musiqiy cholg'uga bo'lgan e'tiborni ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, tariximizga, an'ana va uif-odatlarimizga xalqimizning chuqur hurmatini ham bildiradi.

O'zbek milliy musiqiy cholg'ularining tasniflanishida ularda tovush hosil qilish uslublari asos qilib olinadi. Lekin milliy cholg'ularimizda ijro etish yo'li va ularda ijro etuvchilarning tarkibiga ko'ra boshqacharoq tasniflash ham mumkin. Musiqiy ijrochilikda qo'llaniladigan aksariyat cholg'ularda ijro etish sozandadan katta uquv, malaka, tajriba va bilimni talab qilgani holda, xalq ichida juda keng tarqalgan va biz yuqorida aytib o'tgan professional malakani talab qilinmaydigan sodd musiqiy cholg'ularimiz ham bor. Mana shu cholg'ularni biz, musiqiy folklor cholg'ulari deb atasak xato bo'lmasa kerak. Zero, mazkur musiqiy cholg'ular eng xalqchil, ommabop bo'lish bilan bir qatorda xalq musiqiy ijodiyotining haqiqiy ruhiyatini, tarovatini ifodalovchi tovushlar sadosini yaratish xususiyatiga ham egadir.

Folklor musiqiy ijrochiligining chuqur bilimdoni, amaliyotchisi va mazkur jamiyatning haqiqiy fidoiysi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xoliq Xursandovning ta'biricha, musiqiy cholg'ularni quyidagicha tasniflash to'g'ri bo'ladi: tuyg'u cholg'ulari va kuy cholg'ulari. Tuyg'u cholg'ulari tarkibiga changqo'biz, sibizg'a, sopol nay, g'ajir nay, qamish nay, doira, nog'ora kabi cholg'ularni kiritishni tavsiya etiladi. Qolgan musiqiy cholg'ular esa kuy cholg'ulari qatoriga kiritilishi lozim. Tuyg'u cholg'ularida ma'lum bir kuy ijro etilmaydi va unda faqat ohang ijro etish mumkin. O'sha ohang ham har bir ijrochining o'zigagina hos bolib, uchraydigan ma'lum bir element ushbu ohangning nomlanishini belgilaydi. Misol uchun changqo'bizdagi «Biyov-biyov», «Gij dov,

dov» kabi. Bundan tashqari tuyg'u cholg'ulari insonni tabiatga yaqinlashtiradi, ijro qanday darajada bo'lishidan qat'iy nazar, ijrochi o'zliginigina ifodalaydi va betakror bo'ladi. Tuyg'u cholg'ularining boshqa cholg'ulardan ustunlik tomoni shundaki, ular hamma uchun ochiq.

Kuy cholg'ulari esa maxsus tayyorgarlik, uquv, tajriba, talab etadigan musiqiy cholg'ular bo'lib, ularda ijro etiladigan kuy aksariyat holda oldindan boshqalarga ma'lum. tanish bo'ladi. Ushbu kuylarni maqomiga, qiyomiga yetkazib chalishgina tinglovchilarga ijobiy ta'sir qiladi va bu ancha murakkab ishdur.

Xoliq Xursandovning yuqoridagi nuqtai nazarining isbotini yosh bolalarda kuzatish mumkin. Ularning piyoz o'zagidan, tol bargidan, qamish novdasidan yoki boshqa o'skinliklardan yasalgan va tovush hosil qilish imkoruyatini beradigan tog'ora, lagan kabi jismlardan foydalanib, o'zlari hosil qilgan ovoz va usullardan zavqlanishlari hech kim uchun sir emas. Shuning uchun ham ular o'z tuyg'ularini ifodalashlariga imkoniyat yaratish maqsadida tovush hosil qilish mumkin bo'lgan doyra, hushtak, changqo'biz kabi o'yinchoq cholg'ulari hozirgacha tayyorlanib kelinadi.

Biz folklor-etnografik jamoalar ijrochiligida keng qo'llanilayotgan ba'zi musiqiy cholg'ular haqida ma'lumot berishni lozim topdik.

Changqo'biz.

Changqo'biz juda qadimiy musiqiy cholg'u deb hisoblansada, u to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarga juda kech kiritilgan. Bizning nazarimizda, musiqiy cholg'ular haqida yozilgan risolalarda changqo'biz to'g'risidagi ma'lumotlar uchramasligining asosiy sababi mazkur musiqiy cholg'uda alohida holda «kuy» (bizning tasavvurimizdagi ¹akunlangan musiqiy lavha) ijro etish imkoniyatining yo'qligidan bo'lsa kerak. Changqo'bizning juda qadimiy musiqiy cholg'u ekanligini isbotlash ma'nosida 2ta fakti keltirish mumkin. Changqo'biz cholg'usining metallardan va tuya ²suyagidan tayyorlangan turlarining mavjudligi ushbu cholg'u metaldan foydalanish boshlangan davrdan oldin ham mavjud bo'lganligiga ishora qilsa, changqo'bizga aynan o'xshash cholg'ularning sharqiy turkiy xalqlar, shimol xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari, shu bilan birga totor, boshqird xalqlari va hatto

ohnonlarda ham uchrashi uning juda qaduniy cholg'u ekanligidan dalolat beradi. Changqo'biz cholg'usi qadimdan O'zbekiston hududining hamma viloyat va shaharlarida keng tarqalgan. Hatto eng yirik shaharlarda yashovchi qariyalar ham changqo'bizni yaxshi bilishlari va yoshlik davrlarida chalib ko'rganliklarini e'tirof etishadi. Changqo'biz cholg'usi ijrochilari azaltian ayollar bo'lgan. Changqo'bizda yakka holda va ftirgalikda ijro etib kelingan. Ba'zan 10-15 tagacha ijrochilar qo'srutilq chalish holatlari ham uchraydi. Changqo'bizning eng keng tarqalgan davri sifatida 2-jahon urushi davrini keltirish mumkin. Ushlgu davrda ayollar birgalikda mehnat qilgan jamoalarda ayniqsa keng ommalashgan bo'lib, har bir ayoJ o'zi bilan doimo changqo'bizini olib yurgan va qisqa dam olish fursatlarida ham ayollar birgalikda changqo'biz chalib dam olishgan ekan. Hozirda changqo'biz cholg'usi ko'proq Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida saqlanib qolgan. Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida faoliyat ko'rsatayotgan «Bulbuli go'yo» folklor-etnografik ansanblining dastlabki nomi harn. «Changqo'biz» bo'lgan.

Sho'rchi tumanidan Boboxonova Jorqin momo, Nurmatova Sofiya momo, Muzrabod tumanidan Nazira momo Ramazonova kabi changqo'biz ijrochilarining changqo'bizda ijro etgan nag'malari o'ziga hos sadolari bilan ajralib turadi. Ular inson ichki hissiyotini ifodalovchi «Yorga salom», «Sevgi», «Yorkelur», yoki tabiat hodisalarini ifodalovchi «Shabboda», «Toshqin soy» kabi nomlar bilan ataladi.

Yor qalbiga yo'l ochgan

Do'st ko'ngliga nur sochgan

Bog'da turfa gul ochgan

Sayra mening changqo'bizim

Kuyla mening changqo'bizim,

Ushbu sat rlaming muallifi Boysunda tug'ilib, hozirda Qumqo'rg'on tumanida istiqomat qilayotgan Juma Abrayqulov changqo'bizning yangi imkoniyatlarini ochgan mohir erkak sozandalardan biridir. Changqo'biz chalish sirlarini mukammal egallagan Juma Abrayqulov qo'lida changqo'biz goh daryolarning

shovullashini, goh shamolning guvillashini, goh qushlarning sayrashini va ba'zan so'z bilan ifodalash mumkin bo'lmagan ichki hissiyotlarni ohanglarda ifodalaydi.

Changqo'biz cholg'usini targ'ib etishda Qoraqalpog'iston Xalq artisti Soniya Mahamatdinovaning xizmatlari ham katta. Soniya Mahamatdinova Nukus Davlat musiqa bilim yurtida «Chang'ovuzchi qizlar ansambli» tashkil etib ular bilan birga changqo'biz uchun moslashtirilgan asarlardan dastur tayyorlagan. Shunday fidoyi insonlar tufayli ko'plab qadimiy musiqiy cholg'ularimiz saqlanib qolgan bo'lsa ajab emas. Endi changqo'biz cholg'usining tuzilishi, tovush hosil qilish yo'llari haqida to'g'ri tushuntiramiz.

Changqo'biz hozirda metallardan tayyorlanadi. Umumiy uzunligi 10-15 sm. atrofida, eni taxminan 2 sm. atrofida.

Changqo'bizda asosiy tovush egiluvchan po'latdan tayyorlangan «til» qismida hosil qilinadi. Til (metall plastinka) metallardan ishlangan tutib turuvchi (korpus)ga qotirilgan bo'lib, erkin holda tebranib turishi lozim. Tilning tovush hosil qilinadigan —tebranib turuvchi bo'lagining uzunligi taxminan 7sm. atrofida. Tilning erkin tebranib turuvchi tomoni, ya'ni uchi 1 sm. atrofida qayrilgan bo'lishi lozim. Ana shu qayrilgan qismi barmoq bilan chalish qulay bo'lishi uchun dumaloq shaklida o'rab qo'yiladi. Tilning eni taxminan 1,5 — 2,5 mm. (Barmoq bilan chalinadigan tomonga qarab torayib boradi) bo'lib qalinligi 0,2 — 0,3 mm. atrofida. Tilni ushlab turuvchi qo'zg'almas qism go'yo ikki buklangan qalin metall simni eslatadi. Korpus til qotiriladigan joyida 2 sm. atrofida kengaytirilgan bo'lib oralig'i 0,5 sm.dan ortiq bo'lmaydi. Ana shu oraliqda joylashtirilgan til bilan ushlab turuvchi qo'zg'almas qism tomonlari orasidagi masofa (tuning har ikki tomonidan) 1mm. dan ortmaydi. Tilning qo'zg'almas tomoni, ya'ni korpusga qotirilgan joyidan narigi tomoni ijrochi ushlab turishi uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, tabiatdagi har qanday tovush biror jismning tebranishidan hosil bo'ladi. Tebranish qanchalik kichik bo'lsa, tovush shunchalik yuqori va baland bo'ladi va aksincha. Changqo'bizning tili tebratganda deyarli hech narsa eshitilmaydi, uning tovushi kuchaytirilishi va boshqalarga eshutilishi uchun og'iz bo'shlig'i rezanator vazifasini bajaradi. Changqo'bizni ijro etishda uning

qo'zg'almas qismining uch tomoni yuqori va pastki tishlar o'tasiga shunday joylashtiriladiki, cholg'uning tili ana shu holatda erkin tebranishi uchun hech qanday to'siq bo'lmasligi lozim. Yuqori va pastki lab changqo'bizning qo'zg'almas qismiga tegib turishi mumkin, lekin tilning harakatiga to'sqinlik qilmasligi shart. Changqo'biz ijrosida og'iz bo'shlig'ini tez kengaytirish va toraytira bilish asosiy shartdir, zero til yordamida ana shu holatni yuzaga keltirish orqali changqo'biz «tili»da hosil bo'lgan yagona tovushni o'zgartirish, kuchaytirish va ohanglar tuzish imkoniyati yuzaga keladi. Bundan tashqari ijrochining ijro davomida chuqur nafas olishi va nafas chiqarishi tovush kuchini orttiradi. Changqo'bizda ijro etilgan ohanglar o'ziga hoc bo'iib, ularni boshqa cholg'ularda chalib ko'rish imkoniyatidan va nota holida yozib olish imkoniyatidan mahrum deb hisoblanib kelingan. Changqo'bizda olib borilgan tajribalardan shunday xulosaga keldikki, unda 1,5 oktava oralig'idagi bar qanday kuyni chalish imkoniyati bor ekan. Buning uchun ijro mahorati va og'iz bo'shlig'i orqali ma'lum tezlikda tovushni hosil qiliish imkoniyati mavjud bo'lsa bas.

Changqo'biz bilan gapirish ham mumkin. Bu ancha murakkab ish bo'lsada, uddalasa bo'iadi. Changqo'bizda unli tovushlar juda oson hosil qilinadi, biroq undosh tovushlarni(ayniqsa lablangan undoshlarni) hosil qiliish biroz murakkab.

Changqo'biz cholg'usidan ansambl tarkibida foydalanish uncha yaxshi natija bennaydi. Chunki changqo'bizda hosil qilinadigan tovush kuchi anchagina past bo'iib, jarangdor musiqiy cholg'ilar hamohangligida eshitilmay qoladi. Changqo'bizda yakka holda, changqo'bizchilar anambli tarkibida ijro etish uning ijrosini to'liq ba sifatli eshitish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan bir qatorda do'mbira bilan birga, sibizg'a yoki sopol nay bilan birga chalinganda ham uning sadosini yaxshi eshitish mumkin. Hozircha changqo'bizdan folklore cholg'u ansambllarida, estrada ijrochiligida «lavha»(epizod) ijro etishda foydalanib kelinmoqda. Changqo'biz cholg'usining imkoniyatlari hah to'liq o'rganilmagan va bu yo'nalishda izlanishlar davom etishi lozim. Masalan, alohida tayyorlangan changqo'bizlar beradigan asosiy tovushining balandligi qaysi tovushga mos kelishini ustalar o'ylab ham ko'rmaydi va bir xil balandlikdagi tovush hosil

qiluvchi changqo'bizlar yaratishga harakat ham qilinmaydi. Bu esa juda murakkab vazifa emas. Changqo'biz «tili»ning uzunligi, eni va qalinligi bir xil bo'lgan changqo'bizlar bir xil asosiy tovush hosil qilishi mumkin. Timing eni, bo'yi yoki uzuiligin qisqartirish yoki uzaytirish orqali esa musiqa foydalaniladigan tovushlarga bemalol moslashtirish (sozlash) imkoniyati bor. Changqo'bizning barcha o'lchamlari ishlab chiqilgan va malum tovushlarga sozlangan xillari hozirda Olmoniyada mavjud. U yerdan olib kelingan changqo'biztarning re, sol, si, do tovushlariga sozlangan turlarini uchratdik. Changqo'bizda hosil qilish mumkin bo'lgan tog'u-daralarning, qiru-sahrolarning, daryo va daraxtlarning sadosiga taqlid qiluvchi va biz musiqa deb atagan qo'rg'on chegarasidan chiqib tabiat ohanglari (sadolari) bilan hamohanglikni yaratish imkonini beradigan sadolardan bahramand bo'lish imkoniyatini saqlab qolish uchun harakat qilishimiz kerak.

Sabizg'a — har bir musiqiy cholg'uning sadosi insonlarda muayyan hissiyotni uyg'otish hususiyatiga ega. Misol uchun, ud cholg'usi salobat, ulug'vorlik, bosiqlik kabi hissiyotlarni hosil qilsa, surnay-tantanovarlik, bayramona kayfiyatni, sato — munglik, g'amginlik hislarini uyg'otadi. Sibizg'a cholg'usining sadosi esa eshituvchida albatta tabiat, borliq, kenglikni esga soladi. Uni eshitgan tinglovchi ko'z o'ngida tog'u-toshlar, cho'lu-sahrolar, qiru-dalalar gavdalanganday bo'iadi. Ana shunday, sehriy sadolar hosil qilish hususiyatiga ega bo'lgan sibizg'a juda qadimiy musiqiy cholg'ular qatoriga kiradi. Inson tomonidan yaratilgan eng sodda va inson ovozigacha yaqin sado beradigan sibizg'a ming yillar davomida oddiy xalq tomonidan yasali va chali kelingan. Bu musiqiy cholg'u dastlabki ko'rinishiga va tuzilishiga nisbatan juda kam o'zgarishga uchragan.

Musiqiy folklor cholg'ularimning saqlanib qolishi va juda kam o'zgarishga uchrashining asosiy sababi ham ularning sodda tuzilishiga ega ekanliklari va oddiy odamlar tomonidan yasaliishi mumkinligida bo'lsa kerak. Sibizg'a cholg'usi g'arov qamish deb ataluvchi qalin devorli qamishdan yasaliadi. Tovushning balandligini

o'zgartuish uchun 3 yoki 4 ta teshik ochiladi .Ana shunday sibizg'ada kvarta, kvinta ba'zan seksta diapazoni oralig'idagi kuylarni chalish imkoniyati bor.

Ma'lumki, folklor qo'shiqlari ham katta diapazon talab etmaydi va mazkur qo'shiqlar kuylarni sibizg'ada ijro etish imkoniyati hosil bo'iadi. Sibizga cholg'usida tovush nafas orqali (puflash orqali) hosil qilinadi. Og'iz bo'shlig'idan kuch bilan yo'naltirilgan havo sibizg'aning tanasida ochilgan «tilcha» bilan korpus oralig'i orqali o'tadi va tebranib turish xususiyatiga ega bo'lgan «tilcha»ni tebratadi va tovush hosil qiladi. Sifatli tovush hosil qilinishi «tilcha»

bilan korpus oralig'idagilebranish masofasi va namlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun sibizg'ani chalishga tayyorlashda lining orqa tomonidan puflanadi va buning natijasida «tilcha» bir 6z ko'tarilib ijro uchun tayyor bo'ladi. Havo kuchirung o'zgarishi sibizg'ada hosil qilinadigan tovush kuchining va balandligining o'zgarishiga olib keladi. Kuchsiz havo «tilcha»ni tebrata olmasa, o'ta kuchli havo «tilcha»ning erkin harakatiga ta'sir qilib uni korpusga yopishtirib qo'yishi mumkin. Sifatli hosil qilingan tovush ham havo kuchi orqali yarim to'ngacha va ba'zan undan ham ortiqroq o'zgartishi mumkin. Bu amaliyot ijrochining mahoratiga bog'liq bo'lib, diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan mazkur cholg'uda kerakli tovushlarni nafas kuchi orqali hosil qilish imkonini yaratadi.

Sibizg'a cholg'usining milliy musiqiy ijrochiligimizda qayta «tirilishiga sabab bo'lgan shaxslar haqida ham to'xtalib o'tish lozim. Professional musiqiy mutaxassislar tomonidan o'ta sodda, deyarli o'yinchoq holida qabul qilingan sibizg'a xalq ichida mohir ijrochilariga ega bo'lgan. Surxondaryoning Sho'rchi tumanidan ushbu sodda musiqiy cholg'uda ajbyib, o'ziga xocmusrqiy ohanglar yaratgan Nodir bobo (oxirotlari obod bo'lsin)va ularning farzandlari Abdurashid bobo Nodirovlarning xizmatlari haqida to'xtalmasdan bo'lmaydi Ushbu kishilarning ijrochilik mahoratlari musiqa mutahassislarining e'tiborini tortishi natijasida ushbu musiqiy cholg'uga e'tibor o'zgardi va ular ijrosidagi musiqiy lavhaia Respublikamizning eng katta bayram tantanalari — Mustaqillik va Navro'z bayramlarini nishonlash tadbirlarini ham bezab kelmoqda. Afsuski, ularning mukammal ijro etgan musiqiy lavhalari faqat qiziquvchi va mutahassislarning

shaxsiy fonetikasidan joy olgan. Hozirgi kunda sibizg'a cholg'usida ijrochilik an'analarini Surxondaryolik Sayqon Xidiraliyev davom ettirib kelmoqda. Hozirda professional musiqiy ijrochilikda qo'llanilayotgan qo'shnay va bulaman, bolabon cholg'ularining paydo bo'lishiga sibizg'a cholg'usi asos bo'lgan. Bulaman cholg'usining tovush hosil qiluvchi — «til» deb ataladigan qismi xuddi sibizg'a cholg'usining puflanadigan qismi bilan bir nil. Farq shundaki, bulamanda nisbatan ingichkaroq-qamishdan foydalaniladi va tovush kuchaytiruvchi surnaysimon (yog'ochdan yasalgan) qismga uzatiladi. Qo'shnay cholg'usi esa diametri bir oz katta, 7 ta teshik ochilgan va 2 donasi birga qo'shilib chalinadigan sibizg'aning xuddi o'zidir. Sibizg'aning turli joylarda turli kishilar tomonidan yasaliishi hamma joyda bir xil o'lchamga amal qilinmasligiga olib keladi. Nodir bobo tomonidan tayyorlangan sibizg'aning o'lchamlari quyidagicha: qamish sirtqi diametri 7 millimetr, ichki diametri 4 millimetr bo'lib, uzunligi 12,5 santimetr. Puflanadigan tomonida til ochilgan joyigacha orahq 7 millimetr, timing uzunligi 3 sm, eni esa 6 millimetr. Puflanadigan tomondan 6 sm. dan keyin 0,5 sm. oraliqda taxminan 7 mil U metr uzunlik va 3,5 millimetr kenglikda 4 dona teshik ochilgan. Ushbu cholg'uning eng pastki tovushi 2- oktava do bo'lib, unda 2- oktava sol diyez tovushigacha hosil qilish mumkin edi. Keyinchalik mustaqil ravishda 4-teshik va til oralig'ida yana bitta teshik ochdik va tovush diapazonini 2- oktava si tovushigacha yetkazdik. Bizning nazarimizda yaxshi qamish novdasidan foydalanib tesniklar sonini orttirilsa tovush diapazonini bir oktavaga yetkazish va hatto orttirish ham mumkin.

Hozirda sibizg'a cholg'usidan estrada qo'shiqchiligida, hatto orkestr ijrochiligida foydalanilmoqda. Cholg'uning hususiyatidan kelib chiqib, undan cho'zib ijro etiladigan lavhalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shullovuk (sopol nay)

Shipillak, shullovuk, hushtak, sopol nay nomlari bilan ataladigan sodda musiqiy cholg'u bizning nazarimizda damli cholg'ularning eng qadimiysi bo'lsa kerak. Mantiqan olib qaraganda inson yog'ochga yaxshi ishlov berishi uchun metal asbob kerak bo'lgan. Ushbu jarayonlar bo'lmagan davrda ham yasash mumkin

bo'lgan sopol nay tushirilgan tasvirlar Surxondaryodagi Dalvarzintepa qazilmalarida ham uchraydi, Oddiy loydan yasalib, o'tda toblanishi natijasida sopol holiga keltirilgan sodda asboblari qatorida sopol nay ham bo'lgan bo'lsa kerak.

Mazkur cholg'uning turlicha ko'rinishdagi turlari Respublikamizning turli joylarida uchraydi. Bolalar (qishloq joylarda) o'yinchog'i sifatida bittagina tovush hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan turlaridan tortib bir yarim oktavagacha diapazonda kuy chalish imkoniyatiga ega bo'lgan sopol naylar qadimda juda keng tarqalgan edi. Hozirda juda kam uchraydigan mazkur cholg'uning turli ko'rinishdagi turlari ba'zi chet viloyatlardagina saqlanib qolgan.

Sopol nayda tovush hosil qilish hech qanday qiyinchiliksiz amalga oshiriladi, ya'ni puflanadigan tomonidan havo yo'naltirisa has. Sopol nayda hosil qilinadigan tovush yog'och yoki bambukdan yasalgan naydan keskin farq qilmasada, o'ziga hos sadosi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari professional ijrochilikda qo'llaniladigan nay cholg'usida ijro mashaqqatli mehnat, uquv va tajriba talab qiladi. Sopol nayda esa nafas kuchidan to'liq foydalanish (nay ijrosida ma'lum qismdagi havo to'lqini puflanadigan teshikni chetlab o'tadi) hisobiga oz muddatda natija ko'rsatish imkoniyati bor,

Surxondaryoda tayyprlangan sopol nayning o'lchamlari quyidagicha. Tashqi diametri 2,3 sm, ichki diametri 1,3 sm, devor qalinligi 0,5 sm. bo'lib, cholg'uning uzunligi 17 sm.ni tashkil etadi. Uning puflanadigan tomoni devorlari siqib, zichlab bemitilgan va o'sha joyining eni 3,2 sm.dir. Havo puflanishi uchun zichlab yopishtirilgan joyi o'rtasidan eni 5mm, qalinligi 1mm.hk teshik ochilgan. Sopol nayning ustki qismida 4 ta va pastki qismida barmoq bilan ochib yopiladigan 1 ta teshik mavjud. Teshiklar diametri 5 mm. dan bo'lib ular orasidagi masofa 1,5,- 1,8 sm.ni tashkil qiladi. Puflanadigan tomondan hisoblanganda ustki qismdagi 1-teshik 7,5 sm.dan keyin, pastki teshigi esa 5,3 sm.dan keyin ochilgan.

Agar sopol nay o'lchamlari o'zganirilib ustki teshiklar soni 6 taga yetkazilsa, unda 2 oktava va undan ortiq oraliqdagi kuylarni chalish imkoniyati tug'iladi.

Bundan tashqari sopol nay diametrini orttirish yoki kamaytrish orqali nisbatan past yoki yuqori regstrli cholg'u turlarini ham hosiJ qilish mumkin.

Mazkur musiqiy cholg'udan foydalanish masalasida hozirda sustkashlik mavjud, ya'ni, faqat «Boysun-> va «Bulbuli go'yo» folklor-etnografik jamoalaridagina foydalanilmoqda.

Asosiy to'rt unsur dan bin bo'lgan tuproqqa ikkinchi unsur — suv aralashtirilganda hosil bo'lgan loydan shakli yasaladigan, keyin esa yana bir unsur — olovda pishirilgan sopol nay o'ziga 4-unsur havonj tortganida (qabul qilganida) go'yo ushbu qadimiy cholg'u bizga asrlar sasini berganday bo'ladi. O'z sadosi bilan

bizlami ushbu zaminda yashab o'tgan ota — bobolarimiz bilan ruhan bog'laydi. Boshqacha qilib aytganda, biz yashab turgan zaminimizda o'sadigan dov-daraxtlaru, buta-o'simliflar bilan hamohang bo'lib zaminimiz tuprog'i ham kuylash hususiyatiga ega.

Dombira — Do'mbira cholg'usi hozircha professional cholg'u ijrochiligida qo'llanilmasada xalqimizgatanishmusiqaclio]g'usidir. Baxshilaming eng yaqin hamrohi, tinglovchi bilan muloqotdagi eng yaqin yordamchisi bo'lgan do'mbira juda qadimiy cholg'ulardan hisoblanadi. Uning zaminimizda yaratilgan eng qadimiy torli cholg'ulardan biri ekanligini tarixiy ma'lumotlar va qazilma boyliklardagi tasvMar ham isbotlaydi. Torlar sadosini tinglovchiga yetkazish xususiyati dastlab shu cholg'uda sinab ko'rilgan bo'lsa ham ajab emas.

Hozirda bizda qo'llanilayotgan do'mbiralar juda kam o'zgarishga uchragan. Dastlabki davrlarda ichakdan, keyinchalik ipakdan eshilgan torlar hozirda plastik iplar bilan almashtiriigan, xolos.

Do'mbira cholg'usi hozirda juda keng tarqalgan dutor cholg'usi yaratilishiga sabab bo'lgan, degan tahmmilar ham bor. Bundan tashqari qozoq xalqida ham do'mbira cholg'usi eng asosiy musiqiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Qozoq do'mbirasi zamon ta'sirida o'zgartirilib, qovurg'ali kosaxona va bog'lama pardalarga ega bo'lgan cholg'udir.

Rus xalq cholg'usi "do'mra" ham nomlanishi bilan bizning do'mbh"amizga qarindoshligini isbotlaydi. Tarixdan shu narsa malunijd, 15- asrdan 19- asr o'rtalari oralig'ida rus hukmdorlari maxsys farmonlar bilan «skomoroxlar» nomini olgan sayoq sozandalar bilan kurashib kelganlar. Cherkov ayonlari «shayton cholg'ulari»

deb atagan va ularning ta'birida insonlarni dindan chalg'itgan mazkur musiqiy cholg'ular va ijrochilar doimiy ta'qibda bo'lgan. Bir necha marta ularga nisbatan ochiq urush e'lon qilinib, maxsus tadbirlar uyushtirilgan. Rus musiqiy tadqiqotchilarining o'zlari e'th"of etishicha hozirda eng ommabop bo'lgan balalayka cholg'usi ham ta'qibchilarni chalg'itish maqsadida ko'rinishi o'zgartirilgan do'mbira cholg'usining turidir.

XIX- asr oxirida rus xalq cholg'ulariga qayta umr bag'ishlagan

V.V. Andreyev awal balalayka chojg'usini takomillashtiradi. Unga yordam bergan ustalardan bin tasodifan chordoqda (torn ustida) ta'qiblardan yashirilgan eski do'nara cholg'usini topib oladi va uni takomillashtirib hoziigi ko'rinishga olib keladi. Ma'lum bo'lishicha qadimiy rus do'mrasida ham pardalar bo'ltirgan va ijro mezrob bilan emas o'ng qo'l barmoqlarida bajarilgan.

Agar do'mbira dutor cholg'usining asosini tashkil etgan bo'lsa, dutor ta'sirida hozirgi kavkaz xalqlari va turklarda mashhur bo'lgan «&oz» cholg'usi dunyoga kelgan deb taxmin qilish mumkin. Chunki, dutorning metall torlar tortilgan qoraqalpoq dutori va turkman dutorlari keyinchalik g'arbga tomon siljib metall torlarda mezrob vositasida tovush hosil qilish uslubidagi «soz»larning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan deyishga asos bor. Qolaversa, kavkaz xalqlarida - (Dog'istonda) foydalaniladigan «soz» o'z ko'rmishi bilan dutor eholg'usining kattalashtirilgan nusxasiga o'xshab ketadi.

Dombira cholg'usining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, qo'shiq ijrochisi usuini doimo sezib turishi uchun aksariyat hollarda talab etiladigan urma cholg'u (doyra) ishtirokidan halos qila oladi. Boshqacha qilib aytganda, do'mbirada kuyning o'zini chalish qatorida usumi ham qo'shib ijro etib ketaverish imkoniyati bor.

Do'mbira cholg'usiboshqa folklorcholg'ulariga nisbatan ko'proq o'rganilgan va hatto unda ijro etilgan kuylar no'talashtirilgan. Musiqashunos olim F.Karomatovning 1962-yilda nashr etilgan «Dombira musiqasi» deb atalgan kitobi to'liq mazkur cholg'uga bag'ishlangan.

Biz yashab turgan hududimizda foydalanib kelayotgan milliy musiqa cholg'ularining turlari nihoyatda ko'p. Agar ularni nomma -nom sanab chiqadigan bo'lsak, 50 tadan ham ortib ketadi. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg'ular XX asrning 40 yillaridan keyin yangidan yaratilgan musiqiy cholg'ular bo'lib, asosan orkestr va ko'p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Bu cholg'ular muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqiy cholg'ularning shaklini ymklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalarning natijasida yaratilgan. Tajribalar nay, chang, rubob, dutor, g'ijjak, qo'biz cholg'ularining oilasini dunyoga keltirdi. Qadimdan musiqa ijrochiligida qo'llanilgan va taraqqiyot natijasida ma'lum o'zgarishlarga uchragan musiqiy cholg'ularda hosil qilinadigan tovushlar bir — biridan farq qiladi. Sozandaning o'zini va musiqa cholg'usini ko'rmasdan turib biror musiqiy bo'lak qaysi musiqa cholg'usida ijro etilganini aniqlash mutaxassislar uchun qiyinchilik tug'dirmasa-daf ushbu cholg'uni umuman tanimaydigan va musiqiy sadolanish haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lgan kishi uchun bunday topishmoq juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun mahsg'ulotlar jarayonida o'rganilayotgan cholg'uning o'zidan yoki musiqiy yozuvlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Nay — juda qadimiy damli (puflab chalinadigan) musiqa cholg'usi bo'lib, qattiq yog'och tanasidan yoki bambukdan yasaladi. Unda bir dona puflanadigan va 6 dona tovush balandhgini o'zgartiradigan teshiklar bo'ladi. Nay cholg'usiga aynan

o'xshaydigan yofci biroz boshqacharoq ko'rinishdagi musiqiy cholg'ular sharq xajqlarining deyarli barchasida, shuningdek arablarda va ayrim Yevropa xalqlarida uchraydi. Simfonik orkestrlarda va damli sozlar orkestrlarida qo'llaniladigan fleyta nomjti musiqiy cholg'u nay cholg'usining takomJllashtirilgan shaklidir.

Suraay cholg'usi ham qa'dimiy tarixga ega. Bu cholg'u asosan tantanalar, bayramlar, sayillar, to'ylarda doyra, nog'ora, kamay cholg'ulari bilan birgalikda ishlatiladi. Surnayiiing tovushi juda kuchli bo'Iganligidan asosan ochiq joylarda foydaJaniladi. Surnay yong'oq, o'rik kabi qattiq daraxtlar yog'ochidan tayyorlanadi. Uning ustki tomonidan- 7ta va pastki tomonidan bitta teshik ochiJgan bo'lib, ana

shu teshiklarni ochish yoki yopish orqali kerakli tovushlar hosil qilinadi. Surnayda lovush hosil qilinadiganqism alohida tayyorlanib, "nay pachoq" deyiladi va har safar ijro etishdan avva] sumayga o'rnatiladi.

Sibizg'a yoki sibiziq juda qadimiy musiqiy cholgulardan biri bo'lib, chorvachilik rivojlangan hududlarda paydo bo'lgan deb tahmin qilinadi. G'arov qamish bo'lagidan tayyorlanadi, qat'iy o'lchamlari belgiianmagan. Har bir ijrochi o'z ihtiyoriga ko'ra xohlagan hajmda tayyorlab kelgan bu cholg'uda 2-3 tadan boshlab 4-5 tagacha teshiklar ochilishi mumkin. Keying! paytlarda unutila boshlangan bu cholg'uning qayta jonlantirilishida Surhondaryoiik Nodir bobo va ularning farzandlari Abdurashid bobolarning ijrochilik an'analari katta yordam berdi. Hozirgi katta bayram tantanalari va folklor jamoalarining chiqishlari oldidan yangraydigan sibizg'a tovushi hammamizga tanish bo'lib qolgan.

Qo'shnay - sibizg'a cholg'usining takomillashtirilgan va 2 donasini birgalikda qo'shib chalinishidan hosil bo'lgan musiqiy cholg'u - qo'shnaydir. Qo'shnay tayyorlanadigan qamishlar bir 02 yo'g'onroq va uzunroq bo'ladi. Har ikkala qamish bo'laklari xuddi sibizg'adagi singari tillar ochiiadi va har bir bo'lakning uzunligi va yo'g'onligi bir xil bo'lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo'lakda ham bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiiadi. Qo'shnay Xorazmda kengroq qo'Uaniladi. Uning sadolanishida "g'iziHash"ga o'xshagan tebranish seziladi.

Bulaman(balabon) surnaydan ko'ra birmuncha kichikroq, qattiq yog'och tanasidan ishlangan cholg'u bo'lib, tovush hosil

qilinadigan qismi surnaymkidan farq qiladi. Bulamanda "nay pachoq" o'rnida sibizg'asimon til ochilgan qamish bo'lagidan foydalaniladi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ulami 7tasi ustki tomonda va Itasi pastki tomonda bo'ladi. Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan ancha pastroq bo'ladi. Shuning uchun bu cholg'udan cholg'u ansambllari va qo'shiq ijrochilariga jo'r bo'lishda foydalanish mumkin. Bu cholg'u Xorazmdan boshqa hududlarda deyarli uchramaydi. Karnay — o'zbek damli musiqiy cholg'ularining eng katta va eng kuchli tovush tembriga ega bo'lgan turidir. O'z nomi bilan karlar

ham eshitishi mumkin bo'lgan nay desa ham bo'ladi. Uning hajmi juda kattaligidan, og'irbo'lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3ta bo'laklami'bir - biriga qo'shib kiydirish orqali yig'iladigan ko'rinishda tayyorlanadi. Bu cholg'udan surnay, doyra, nog'ora bilan birgah'kda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo'lgan ansambllardan foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan.

Chang — qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansa-da, bizning hududimizda XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Changsimon musiqiy cholg'ular xitoy, moldovan, rumin xalqlarida ham uchraydi. Dastlab diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan chang musiqiy mutaxassislar va cholg'u ustalari tomonidan takomillashtirilib, xromatik tovush qatoriga keltirilgan. Chang yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatiladi. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne'matov, Fazilat Shukurova, Tohir Sobirov, Tilash Xo'jamberdiyev kabi sozandalarning mazkur musiqiy cholg'uni targ'ib qilish va ommalashtirishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Qashqar rubobi asli kelib chiqishi Sharqiy Turiciston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur Avtonom Okrug)ning Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'u hisoblanadi. Musiqani endigina o'zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig'i ana shu cholg'udan foydalanishi ma'lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi. Bu cholg'u yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatilishi mumkin. Muhammadjon Miriayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat Mirzayev,. Qobiljon Usmonov,

Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Tohir Rajabiy kabi sozandalar ushbu cholg'u dovrug'ini yoyishda ulkan xizmat ko'rsatganlardan hisoblanadi.

Afg'on rubobining ikkinchi nomi buxoro rubobidir. Ushbu cholg'u ko'proq foisiy zabonli xalqlarda keng yoyilgan. Tovushining bir oz yo'g'onligi va mayinligi bilan ajralib turadi. Bir oz boshqacharoq ko'rinishdagi afg'on ruboblari Hindiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, ba'zi kavkaz xalqlari va arab davlatlarida ham uchraydi.

XX asrning 40 yillaridan keyin takomillashtirilib, xromatik tovush qatorida keltirilgan afg'on robobi yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ijro etish uchun mo'ljallangan. Afg'on rubobini targ'ib etishda G'ulomqodir Ergashevning xizmatlari katta bo'ldi.

G'ijjak cholg'usi qadimdan ma'lum bo'lsada, turli nomlar bilan atalib kelgan. Masalan, ba'zi tarixiy asarlarda u "rebab" deb atalgan. Hozirda g'ijjak tojik, ozarbayjon, turkman, arman, uyg'ur xalqlarida uchraydi. G'ijjakning dona toq torlari bo'lib, kamon bilan ijro etiladi. Uning dastasida pardalari bo'lmaganligi sababli kerakli tovushlarni hosil qilish sozandadan yaxshi eshitish qobiliyati va yuksak mahorat talab qiladi. To'htasin Jalilov, G'anijon Toshmatov, G'ulomjon Xojiqulov, Abduhoshim Ismoilov, Shuhrat Yo'ldoshev, O'lmas Rasulov, Qahramon Nazirov, Qahramon Komilov kabi qator sozandalar g'ijjak cholg'usini mohir ijrochilari hisoblanadi. G'ijjak yakka soz holida, ansambllar tarkibida va orkestrlar tarkibida keng qo'llaniladi.

Doyra — o'zbek musiqiy ijrochiligida usul beruvchi eng asosiy cholg'u hisoblanadi. Doyra ishtirokisiz nafaqat ansambllar yoki orkestr ijrosini, hatto ko'pgina yakka cholg'ular ijrosini ham tashkil etib bo'lmaydi. Bundan tashqari doyra O'zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg'ulardan biridir. Uning xalq ichida keng ommalashuvida Usta Olim Komilov, G'ofir Azimov, Qahramon Dadayev, aka-uka Islomovlar, OdilKamolxo'jayev, AbbasAliyev kabi qator doyrachilarning xizmatlari bor.

Nog'ora - ikkita sopol tuvakka teri tortilgan ko'rinishda bo'ladi. Bin jarangdor, ikkinchisi bo'g'iq tovush chiqaradigan ana shu tuvaklaming teri tortilgan qismiga maxsus cho'plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi. Nog'ora sadosining juda kuchliligi undan faqat ochiq havoda ijro etiladigan "Karnay-surnay" ansambUari foydalanishni taqozo etadi.

Changqo'vuz metallardan tayyorlanganjuda sodda cholg'u bo'lib, sozaadadan yuksak ijro mahoratini talab qilmaydi. Bundan tashqari chanqovuzda kuy ijro etish imkoniyati ham nihoyatda chegaralangan. Bu cholg'u azaldan ayollar cholg'usi hisoblanib kelgan. XX asrning 60 yoillariga qadar davrda O'zbekistonning deyarli

hamma joyida chanqovuz ayollarning eng keng tarqalgan musiqiy cholg'usi bo'lgan. Changqo'vuz turkiy qabila halqlarining barclialarida, shuhingdek slavyanlarda va hatto romano — german xalqlarida ham uchraydi. Qadimda chanqovuzlar tuya suyagidan ham yasalgan degan ma'lumotlar bor. Hozirda chanqovuzning eng mohir erkak ijrochisi Surxondaryolik Juma Abrayqulov hisoblanadi.

Dutor — tojik tilida ikki tor ma'nosini beradigan, eng sevimli va ommalashgan o'zbek musiqiy cholg'ularidan biridir. Haqiqatdan ikkita torga ega bo'lgan dutorda kuy asosan birinchi torda ijro etilsa-da, ikkinchi tor o'sha kuyga doimiy qo'shiladigan sado berib turishi ushbu cholg'uni bosbqa cholg'ulardan ajratib turadi. Dutorning sadosi juda mayin bo'iib alohida holda ham juda yaxshi eshitiladi. Ba'zi cholg'ular doyra jo'rligisiz ijro etilishi qiyin bo'lgani holda, datorning o'zida usulni chalib borish imkoniyati, uni yakka holda ham yaxshi qabul qilishga yordam beradi. Dutorning sadosini yaxshi eshitish uchun tanbur bilan, g'ijjak bilan birgalikda, shuningdek kichik cholg'u jamoalarda foydalangan rna'qul.

Tanbur — o'zbek xalqining qadimiy va o'zlashtirish jiliatidan eng murakkab bo'lgan musiqiy cholg'ulardan hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbeklarda, uyg'urlarda va tojiklarda uchraydi. Tanbur Shaslimaqom, Xorazm, Farg'ona — Toslikent maqom yo'llari ijrosida boshlovchi cholg'u hisoblanadi. Tanburga 4ta sim tortilgan bollob, kuylar uning birinchi torida ijro etiladi. Torlarni chertish uchun o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'iga maxsus moslama — nohun kiydiriladi. Qadimda nohundan foydalamlmasdan o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ining tiinog'i o'stirilib ijro etilgan. Tanburda mukammal ijro etishning eng murakkab tomoni shunda-ki, chap qo'l barmoqlarida bosiladigan bitta pardada bir nechta tovushni hosil qilish imkoniyati bor. Kerakli lovushni hosil qilish uchun esa juda yaxshi eshitisri qobiliyati va yuksak ijro mahorati talab qilinadi. Shuning uchun ham tanbur uzoq yillar davomida va mashaqqatli mehnat evaziga o'zlashtiriladi. Tanbur cholg'usining mohir ijrochisi Turg'un Alimatov "O'zbekiston qahiamoni" yuksak unvoniga sazovor bo'lganligi va maxsus musiqiy ma'lumotisiz Konservatoriya

professor! sifatida yoshlarga ta'lim berayotganligi ham ana shu cholg'uning naqadar muhimligi va murakkabligidan dalolat beradi.

Sato tanburning kamon bilan chalinadigan ko'rinishidij. Avvalda oddiy tanbur sato sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirda tanburning bir oz kattalashtirilgan va ko'rinishi bir oz o'zgartirilgan turi sato sifatida ishlatilmoqda. Sato ijrosida nohun o'rniga g'ijjak va skripka cholg'ularini chalishda ishlatiladigan kamondan foydalaniladi. Satoning tovushi juda mayin va uiug'vordir. Unda asosan mungli va og'ir kuylar ijro ettiadi. Sato — dutor, tanbur cholg'ulari bilan birgalikda va alohida holda yaxshi eshitiladi. Maxsus ovoz kuchaytirish moslamalarisiz katta ansamblJarda va orkestrlarda ishlatilishi qiyin. Sato cholg'usida ham eng mohir sozanda Turg'un Alimatov hisoblanadi.

Qonun musiqiy cholg'u qadimda biz yashab turgan hududimizda keng tarqalgan. Lekin XX asrboshlaridan to 80 yilJargacha mazkur cholg'u bir oz unutila boshlandi. Izlanuvchan sozandalarhing, xususan, Abdurahmon Holtojiyevning say'i harakati bilan bu cholg'u yana musiqiy hayotimizga kirib keldi. Hozirgi kunda qonun turli ansamblJarda va orkestrlarda keng qo'llanishiga erishildi. Qonun harraging teri ustida joylashishi va unga tortilgan ,torlarning metakdan emas, sun'iy plastik ekanligi sadolanishni mayinlashtiradi. Qonun torlari har ikkala qo'l ko'rsatkich barmoqlariga kiydiriladigan maxsus plektor (mediator) bilan tiralib chalinadi. Qonun diatonik tovush qatoriga ega. Qonun torlarining ikkitasi yoki uchitasi bir xil qilib sozlanadi. Cholg'uning o'ng tomonida joylashgan kichik xarrakchalar ana shu torlarni taranglashtirib yoki bo'shashttrib kerakli yarim tonliklarni hosil qiiishga yordam beradi.

Ud. Surxondaryoning Dalvarzintepa deganjoyida arxeologik qazilmalar natijasida topilgan sopol haykalchalarda ud cholg'usining tasviri saqlanib qolganligi ana shu musiqiy cholg'uning naqadar qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Ud cholg'usi ming yilar davomida musiqiy cholg'ularning "shoh"i va eng mukammali liisoblanib kelingan. Ud tovushining yoqimliligi

va inson ovozigaga yaqinligi har doim eshituvchilarni lol qoldirgan. Taraqqiyot davomida ud eng kam o'zgarishga uchragan musiqiy cholg'u hisoblanadi. O`z

ko'rinishini saqlab qplish bilan birga ud boshqa musiqiy cholg'ularning dunyoga kelishiga ham sabab bo'lgan. Mandolina va gitara musiqiy cholg'ulari ud cholg'usidan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi dalillar bor. XX asrning boshlaridan to 80 yillargacha bo'lgan davrda bir oz unutila boshlagan ud cholg'usi hozirda cholg'u ijrochiligida yana qo'llanila boshlandi. Udning nomlanishiga kelsak, u-rud, shohrud nomlari bilan ham atalib kelgan. Arabiston yarim orolida o'sadigan va tutatilganda yoqimli hid taratadigan daraxt ham ud deb ataladi.

Manzur. Bu musiqiy cholg'u yangi hisoblanadi, chunki tanbur bilan tor cholg'ulari oralig'idagi tovush sadosiga ega bu cholg'u bundan 14 yil muqaddam Toshkentlik cholg'u ustasi Muhammadnazir Yunusov tomonidan tajriba tariqasida yaratilgan. Sozandalar o'rtasida juda keng tarqalmagan bo'lsada, O'lmas Rasulov, Abduhamid Mirhamidov tomonidan ijro etib yozdirilgan musiqiy asarlar mazkur cholg'uning imkoniyatlarini ko'rsatdi.

II.1. Musiqa madaniyati darslarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar

Musiqa madaniyati darslarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar amaliy mashg'ulotlar shaklida o'zlashtirilishi rejalashtirilgan. Mashg'ulotlar samarali o'tishi uchun ko'rgazmali qurol sifatida xalq cholg'ulari, plakatlar, cholg'u guruhlar yoki orkestrlar ijrolarida yozilgan musiqali yozuvlar, cholg'u partituralaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilaraing musiqiy ma'lumollari turlicha ekanligini xisobga olgan holda mustaqil tayyorgarhk uchun vazifalar to'g'ri qo'yiUshiga e'tibor berish kerak.

Ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari tarkibidagi aksariyat cholg'ular boshqa xalqlarda ham keng tarqalgan bo'lib, aynan shu holatda yoki biroz o'zgargan holatda saqlangan. Cholg'ular tarixiga oid mavzu o'zlashtirilayotganda shunday cholg'ular haqida ham to'liqroq ma'lumotlar berilishi foydadan hoh bo'hmaydi.

Cholg'ular alohida o'rganilayotgan davrda har bir cholg'uning sozlanishi yoki diapazoni qaysidir boshqa cholg'uga o'xshashlik tomonlariga bog'lanib o'rganilishi talabalar uchun yengillik tug'diradi. Misol uchun kontrabas dutor torlarining sozlanishi prima rubobi torlarining sozlanishiga teskari, ya'ni, rubob prima torlari sol, re, lya, mi, tovushlariga sozlansa, kontrabas dutor torlari mi, lya, re, so! tovushlariga sozalanadi. Diapazonlar o'zlashtirilayotgan davrda ham shunga o'xshash jihatlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, mezrobli cholg'ular guruhiga kiruvchi cholg'ularning dastasi 2 oktavalik va bir yarim oktavalik ekanligi mutaxassislar uchun yangilik emas. Prima rubobi, qashqar rubobi, alt dutori va bas dutorlarining dastasi 2 oktavalik hisoblansa, afg'on rubobi, kontrabas dutorlarining dastasi bir yarim oktavalik hisoblanadi. Shuning uchun 2 oktavalik dastaga ega cholg'ularning eng ingichka torlarining ochiq sadosi notasi mazkur cholg'ular diapazonidagi so'nggi eng baland nota bilan bir xil bo'ladi. Misol uchun prima rubobida mi, boshqa cholg'ularda esa lya. Cholg'ular alohida o'zlashtirilayotganda shu cholg'u asbobida talim oiayotgan talabalar bilan suhbat, muloqot shakhda mashg'ulotlarni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Imkoniyat darajasida nazariy ma'lumotlar ko'rgazmali vositalar, amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlanishiga erishish zarur.

"Cholg'ushunoslik" fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar o'zbek milliy musiqiy cholg'ulari turlari, ular haqidagi tarixiy ma'lumotlar, har bir musiqiy cholg'uning sozlanishi, diapazoni, ijro imkoniyatlari va xususiyatlari, shuningdek cholg'u jamoalarida foydalanish o'rni, qaysi cholg'ular bilan qo'shilib ijro etilganda yaxshi sadolanishi sirlari kabi ma'lumotlarni olishi rejalashtiriladi.

O'quvchi o'zbek xalq musiqiy cholg'ulari imkoniyatlari (sozlanishi, diapazoni va ijro shtrixlari)ni yoddan bilishiga erishish zarur. Har bir musiqiy cholg'u haqida yetarlicha tasawurga ega bo'lishi uchun o'rganilayotgan cholg'u albatta namoyish etishi va imkoniyat darajalari amaliy ijro bilan ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. "Cholg'ulashtirish" fanibo'yicha mashg'ulotlar davrida qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar tug'ilmasligi uchun transpozitsiya qilinadigan musiqiy cholg'ular, musiqiy kalitlar haqidagi ma'lumotlar ham talaba tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak.

"Cholg'ushunoslik" fani bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida talabalarning "Fortepiano", "Maxsus cholg'u", "Musiqqa nazariyasi", "Orkestrsinf", "Ansaml sinfi" fanlarida olgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari yordam beradi. O'z navbatida "Cholg'ushunoslik" fani bo'yicha olgan bilimlari "Cholg'ulashtirish", "Xalq cholg'ularmi o'rganish", "Partitura o'qish" kabi qator fanlarni o'zlashtirishlari uchun zamin yaratadi.

II.2. Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida milliy musiqamizni o'ziga xos bezaklari orqali o'rgatish

Ma'lumki, xar kanday musika asari bu badiiy asar. Uning badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim va yuksak maxorat talab kiladi. O'qituvchi bo'lg'usi sozandani tarbiyalar ekan, unda shu cholg'uga nisbatan mehr uyg'ota olishi kerak. Buning uchun dastlabki davrlaridayok imkoni boricha shu cholg'uda yaxshi jaranglaydigan o'quvchiga yoqadigan asarlarni pedagogik repertuar tartibiga doimiy kiritib borish lozim. Asarlar ustida ishlaganda boshlang'ich davrdan har bir shtrixni yaxshi o'zlashtirilishiga va yaxshi tovush hosil qilinishiga e'tibor berilishi kerak. Chunki sozanda tovushning kuchi va sifati ijroning badiiy ifodalaydigan asosiy mezonlardan biridir. Badiiy ifodalik qashqar rubob cholg'u ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Sozandaning ijro texnikasi qanchalik yuqori bo'lmasin agar u asarning badiiy xususiyatlarini ochib bera olmasa tinglovchida yaxshi taassurot qoldira olmaydi. Bunday asar ko'rik g'uyo jonsiz, ruhsiz, oddiy bir ko'rinishiga ega bo'lib qoladi. Buning uchun sozanda o'z cholg'usini yaxshi bilishi va shtrixlarning ifodalik xususiyatlarini yaxshi egallagan, ularni kerakli darajada kullay bilish, xamda tinik, oxangdor, yigilgan tovushini xosil kila olishi va uni boshkara bilish kabi malakalarini tulik uzlashtirilgan bulishi kerak.

Bunday malakalarni o'zlashtirish juda murakkab bulib, muayyan vakti talab etidi. Tajribada ijro texnikasi yuksak darajada lekin kuyni xis kila olmaydigan sozandalar uchrab turadilar. Ukituvchi ukuvchi bilan shugullanar ekan, xar bir mashgulotda ukuvchining musikani xis kila olish va uni sezish kabi nozik tuygularni uzluksiz ravishda tarbiyalab borish kerak. Kuyning xar bir cholguning imkoniyatlari va uziga xos bulgan xususiyatlari mavjud. Cholgularning rang-barnag koloritik xususiyatlari ularning uzigagina xos bulgan asarlarini chalish imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan xar bir sozanda uz cholgusini yaxshi bilishi kerak. Kuyning dinamikasidan tortib xar bir shtrixlarini kullashgacha bulgan barcha ijro etish usullari badiiy ifodalilik vositalari bulib xizmat kiladi.

O'quv davrida ma'lum o'quv rejasidagi kuylarni yoki faqat imtixon asarlarinigina o'rganmasdan o'quvchining musiqiy ongini o'stirish, xotirasini va ritmni his qilish hamda eshitish qobiliyatlarini ham tarbiyalab, rivojlantirib borishiga alohida e'tibor qaratilmogi lozim. Buning uchun o'quvchisiining o'zi dars jarayoniga ijodiy yondoshib o'quvchilarni sinchiklab kuzatib borishi va maqsadga erishishning har hil imkoniyatlarini topishi mumkin. shulardan ayrimlarining ko'rib chiqamiz.

Masalan: O'quvchiga biron bir asarni o'qituvchining o'zi ijro etib berish, birgalikda taxlil qilish va ukuvchilarga badiiy tamonlarini tanishtirib, anikrok ochib berish: asardagi musikiy jummalarni obrazli kiyoslab, ularni o'quvchining xis tuygulari orkali tushuntirib berish.

Magnit tasmlardagi kuy va kushiklarini ukuvchilar bilan tingalab, muxokama qilish yoki bir asarni kashkar rubobdagi 2-3 xil ijrolarini solishtirib ularning farklarini, kamchiliklarini va afzalliklarini tushuntirib berish.

Iloji boricha o'quv rejasidan tashkari o'zbek xalk kuylaridan biron bir asarni xamma o'quvchilar bilan notasiz og'zaki tonada o'rganish va chalish.

O'quv muassasasi doirasida va undan tashkiridagi kontsetrlarda chikish va tinglash. Kontsertdan keyin albatta ukituvchi kontsert ijrochiligini taxlil kilib berishi va undagi yaxshi tomonlarini o'quvchilarga kursatib berishi uzining yaxshi samarasini beradi.

Fakatgina kashkar rubob ijrosidagi asarlarni taxlil kilmasdan boshka cholgulardagi ijrolarni kontsetrda yoki magnit yozuvlaridan eshitish va uni taxlil qilish va ulardagi badiiy ifodalilik imkoniyatlarini, vositalarini va shartxlarini solishtirib ko'rish va taxlil qilish. Biz shtrixlar bobida xar bir shtrix muayyan asarda xar xil xarakterga ega deb aytib utgan edik. Yevropa klassiklari asarlarini qashqar rubobida ijro etganda avvalo o'quvchi asarning mualifi yaratilgan davri, asarning janri va yunalishini tushuntirib etgandagina asarning badiiy xarakterini ochib bera oladi.

Masalan: Evropa kllassiklari asarlarini ijro etganda tovush mayin tinik zich va yigilgan sifatlarga ega bulishi kerak. Bunda zarb torga mediatorning urtasi bilan

berilib chap kul barmoklari bilan anik va kattik bosish kerak buladi. O'ng ko'l xarakat ampitudasi kiska va engil bulsa, uzbek xalk kuylari va shashmakom namunalarida esa shu zarb xarrakka yakinrok joyda urilib jarangdor tinik tovush eshitiladi.

An'anaviy musiqa ijrochiligiga xos zarblar: qashqar rubob, afgon rubob, ud, tanbur va dutor kabi milliy cholgularimiz ijrochiligida mezrob (mediator) yoki noxun orkali xosil kilinadigan oddiy va murakkab bulgan zarblar bir necha xildan iborat. Bular: yakka zarb, kush zarb, zarbi parrom, (uchma zarb,) bilak zarb, rez, kalta rez, teskari zarb va ufor zarb Ushbu zarblar uchun mashklar berishdan maksad, yosh ijrochini chap va ung xakatlarini musikiy asarlar ijro etish oldidan jonlashtirish va tavsiya etilayotgan kuyning pardalariga kunikma xosil kildirishdir.

Yakka zarb – tovush chikarishning eng oddiy usulidir.

Yakka zarb mezrobni-noxunni torlarda pastga yoki yukoriga urish bilan xosil qilinadi.

Kush zarb- mezrob yoki noxunni pastga va yukoriga urib chalingan yakka zarb xarakatlarining bir tekisda almashinib turishi natijasidagi tovush chikarish usuli kush zarb deb yuritiladi.

Zarbi parrom– (uchma zarb) zarbi parrom muntazam va tez-tez kulaniladigan usuldir. U mezrob yoki noxun bilan yukoridan pastga, va pastdan yukoriga tez zarb berib chalinadi. Zarbi parrom asosiy tovushga yordamchi sifatida keladigan bittalik farshlagini eslatadi.

Bilak zarb - o'ng qo'lni butan tor buylab yukoridan pastga sirganma xarakatlanishda mezrob yoki noxun bilan tovush chikarish usuli bilak zarb deyiladi. U soz ijrosidagi arpedjio usulini eslatadi bilak zarb taktning kuchli xissasida kulaniladi. U musikiy jumlaning oxirida xam keng kulanishi mumkin. Bu amal kuyga mayinlik va yakuniylik baxsh etadi.

Kalta rez – An'anaviy musika ijrochiligida xar bir nota aloxida-aloxida bir tovushdan ikkinchi tovushga utmay rez berish xollari uchrab turadi. Bunday usul kalta rez deb ataladi.

Teskari zarb – uziga xos sinkopali ritm xarakteriga ega buladi. U noxun yoki mezrob bilan bir tomonga zarb berishning ikkinchi choragiga katiy rioya qilish va bir yunalishdagi zarbning oxirigi choragini sakkizdan uchini birlashtirish natijasida xosil buladi.

Rez – mezrob yoki noxun bilan pastga va yukoriga zarb berishning tez va ustma-ust almashinishidan iborat bulib, chertib chalinadigan torli cholgularida, tovushlarini bir-biriga boglab (uzluksiz) ijro etishning asosiy usulidir.

Ufor zarb – Uzbek xalk yalla va raks kuylari uchun xarakterlidir. U oddiy xalk kuylaridan boshlab, murakkab janr Fargona-Toshkent makom yullarida voxalarga mansub kuy va ashulalarda kuplab uchraydi. Bu usul xalkda ufor zarb deb ataladi.

O'zbek an'anaviy musika ijrochiligiga xos bezaklar.

Milliy musika ijrochiligida qullaniladigan bejamlarning maxsus atamalar bilan nomlanishi kupchilik sozanda va xonandalarga ma'lum.

Masalan: «Kochirim», «tulkinlashtirish», «nolish», «molish», «kashish» va boshkalar. Ularning ayrimlari tovushning sifatini belgilaydi.

Kochirim – oddiy va murakkab melizm (kuyni turlicha kiska tovushlar bilan bezatuvchi belgi) larning barja turini uz ichiga oladi.

Bezaklar –forshlaglar turlari:

Bidratma- trellar turlari:

Saykal – mordentlar turlari.

Torga ulab ijro etiladigan bezaklar nota yozuvida keng rasm bulib kolgan zarb belgilarining biri bilan (P), torga urmagan xolda erishiladigan bezaklar esa nota ustiga kushuv (Q) belgisini ko'yish bilan belgiladi.

Bidratma- ikki yonma-yon tovush tebranishidan xosil kilinadi. U eng qiska va eng uzun tebranishdan iborat bulishi mumkin.

Saykal – (mordent) –bidratmadan tamomila fark qiladi. Agar bidratma uzun va qiska notalarga (nota chuzmaga qarab) bevosita ta'lukli bulsa, saykal uch yokibesh tovushdan tashkil topadi. Uni ijro etishda dastlabki asosiy notadan uni chuzimini yarmigacha qiskartiriladi.

Tulkinlatish – (vibrato) deyarli barcha xalk cholgulari va ashula ijrochiligi uchun xos bejak. Rubobda barmokni pardaga bosib mezrob bilan urilgandan sung barmokning uzida torlarni titratish yuli bilan xosil qilinadi.

Nolish – yarim tongacha bulgan uziga xos yirik bidratma. Qashqar rubobni chalganda bu usul chap kul barmoklarini bir tekisda dastada kundalangiga xarakatlantirish bilan ijro etiladi.

Molish- barmokni bir tovushdan ikkinchi tovushga oxangdor oxista sirgaltirish usuli.

Kashish – yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoklar rubob dastasida kundalang turgani xolda torni yukoriga va pastga tortgandek xarakat kiladi.

Kashkar rubob ijrochiligi badiiy xususiyatlarini mukkamal egallash asarlarini tulik badiiy qimmatli kilib ijro etish sozandadan tinimsiz mexnatni va izlanishni talab kiladi. Bu darajaga etish uchun kashrar rubob ijrochisi fakatgina kashkar rubobi ijrochiligini puxta egallab qolmay balki xar qanday cholgudagi badiiy asar ijrosini tushunadigan va taxlil kila oladigan musikiy tafakkurga ega bo'lishi kerak. Bu esa musikani chukur xis kila olish demakdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek milliy musikamizning musiqiy bezaklari kochirimlari aynan intonatsion ahamiyatga ega bo'lib, ularni duch kelgan joyda qo'llash kuyning ladini o'zgartirib yuborishi mumkin. Amaliyotda hamma shashmakom asarlari va boshka o'zbek mumtoz kuylari bunday belgilar bilan to'liq belgilab notaga olinmagan. Shuning uchun biz bu bezaklarni fakat ijro usullarini qisman kurib chikdik. Lekin notaga olinmagan kuylarni yoki bu bezaklarning nota yozuvida aks ettirilmagan asarlarni urganishda va ijro etishda kochirimlarni kuyni buzmaydigan yoki imkoni boricha kuyni tulikror ochib beradigan xolatda kullash maksadga muvofikdir. Chunki ayrim ukuvchi sozandalar bu kochirimlarni uzni aloxida o'zlashtirib oladilar va keraksiz joylarda qullaydilar. Bu esa o'quvchining mukammal sozanda bulib, erishishida uzining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin. O'kuvchilarga aynan shu musikani xis kila olish kobilyatini shakllantirib uni tarbiyalab borish asosiy vazifalardan biridir

Har bir xalqning milliy musiqa merosi uning xis tuyg'ularini dunyoqarashini, yurak dardini ifodalab berishdek kuchga egadir. qaysi bir xalq bo'lmasin o'zining qadimiy milliy merosini sevsa ardoqlasa o'rgansa va o'zidan boshqalarga xam o'rgatsa unday komil inson o'sha milliy musiqadan zavqlanadi va e'zozlaydi.

Boshqa xalqlar singari o'zbek xalqining musiqa merosi xam qadimiydir. Bu musiqiy merosimizda o'zbek xalqiga mos bo'lgan milliy an'analar, laparlar, xonishlar, aytishuvlar, yallalar, xalpalar, mavrigiylar, maqomlar, joylarga xos bo'lgan maxalliy uslublarda o'z aksini topgan. Shu nuqtaiy nazardan Respublikamizdagi barcha musiqa dargoxlarida jaxon va qardosh mumtoz musiqa madaniyati bilan bir qatorda o'zbek musiqa merosi xam o'rgatilib kelinmoqda. Shu jumladan bizning A.Qodiriy nomli JDPI ning "Cholg'u asboblari va an'anaviy ijrochilik" kafedrasida ham o'zbek milliy cholg'ulari xisoblangan doira, qashqar rubobi, avg'on rubobi, dutor, g'ijjak, tambur, chang va boshqa bir qator milliy cholg'u asboblari o'rgatiladi. Talabalar qaysi cholg'u sozida saboq olishidan qat'iy nazar milliy musiqamizni puxta o'rganishlari va kelajak avlodga etkazishni maqsad qilinmog'i zarur. Ma'lumki musiqiy ijrochilik pedagogikasi sohasi bir qator o'ziga xos bo'lgan umumiy muommolar bo'lib bular ijro vaqti sozlarni to'g'ri ushlash, sozlardan hosil bo'lgan tovushni to'g'ri yo'naltira bilish, chalish jarayonida barmoqlarni joylashuvi, o'ng qo'l va chap qo'l xarakatlari, xamda applikaturadan to'qri foydalanish kabi vazifalardan iborat. Talabalar to'rt yil o'qish davrida birgina cholg'u emas, balki barcha cholg'ularni ularni ijro uslublari xaqida amaliy va nazariy bilimlarini o'zlashtirishlari zarur.

Masalan; qashqar, avg'on rubobidagi, qochirim va texnik bezaklar, forishlang, mordent, trel, kabilar shuningdek tanbur, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, cholg'ulari uchun nola juda xam zarurdir: Bunday musiqa bezaklaridan kashish, yakka zarb, qo'sh zarb, pirrang - bilak zarb, teskari zarb ufor zarb va xakozolar ular ayniqsa chetib chalinadigan cholg'ular sinfi o'quvchilari tomonidan puxta o'rganilishi zarur.

Kashish-Yarim va butun ton oralig'idagi qori va pastga tomon jaranglaydigan ovoz bo'lib bu «glissando» deb ataladi.

Yakka zarb-Muzrob (mediator) yoki noxunni torda yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga yo'naltirilganda xosil bo'ladigan bitta zarb. qo'sh zarb-torda pastga va yuqoriga yo'naltirilgan zarblarning bir me'yorda birin ketin kelishi Pirrang-torda pastga va yuqoriga yo'naltirilgan turtta zarbning birlashtirilishi bu usul tanbur va dutorda an'anaviy ijrochiligida keng qo'llaniladi Bilak zarb-noxun yoki muzrob bilan xamma torlarda pastdan yuqoriga sirpanuvchi arpedjasimon xarakat bilan tovush chiqarish.

Ufor zarb- bu ijro xalq raqs kuylari uforlarda shuningdek treollik ritmik jumllalarda keng qo'llaniladi. O'zbek an'anaviy ijrochilik uslublarini nazariy o'rganish va musiqiy meros janrlarini amaliy o'zlashtirish barcha xalq cholg'u sozlari bo'limlarida talabalarning ijro malakalari ma'lum ma'noda shakllanganidan so'ng o'zlashtirishlari boshlanadi Chunki bunday asarlarni o'rganish va ijro etish ijrochilikdagi texnik imkoniyatlarimizni oshiribgina qolmay, balki musiqiy dunyoqarashimizni ham kengaytiradi.

Xulosa

Umumtalim maktablarida musiqa tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni o'z darsiga, musiqaga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turadi. Maktabda, ayniqsa boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytish, musiqa tinglashga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish va moyillik, asta-sekin yoshlarning sanatga bo'lgan ijobiy munosabatlari va qolaversa ehtiyojlarining tarbiyalanib, shakllanib borishida muhim o'rin tutadi.

Musiqa darsi o'z tabiatiga ko'ra sanat darsidir. Uni rang-barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. "Bolalarni sanatga o'rgatish nihoyatda murakkab,-deb takidlaydi taniqli kompozitor D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkablik shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam sanatga o'rgatish mutlaqo mumkin emas".

Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini taminlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning orombahsh tasiridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his-tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Asarni ijro va idrok etishda his-tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, to'yinish va zavq olish ham shunchalik ongli va chuqur bo'ladi. Bu holatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero zerikarli va sokinlik holati sinfda jonli hissiyot holatini tashkil eta olmaydi. O'quvchilarni darsga qiziqitirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan asarlar repertuari bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni o'quvchilarning yoshlarga, qiziqishlari, bilim va ko'nikmalar darajasiga mos bo'lish, tematikaning rang-barangligi, g'oyaviy-badiiy sifati hamda pedagogik qimmatini bilan belgilanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, maktabda o'quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mos keladigan o'tmish va hozirgi zamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining forma va mazmuni bilan go'zal va hayotbahsh, nafis va xushohang asarlar yangrashi lozim. Zero faqat mana shunday asarlarga o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish

va havas uyg'ota oladi, axloqiy-estetik hissiyotlarini, zarur bo'lgan qobiliyatlarini o'stirib boradi. Bu o'rinda zamonaviy qo'shiqlar qatori xalq qo'shiqlaridan keng va oqilona foydalanish darsni yanada qiziqarli va sermazmun bo'lishini taminlaydi, yosh ijrochilarda xalqimiz ijodiga, uning musiqa va qo'shiq sanati bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllantirib boradi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushunarli va qolaversa materiallarning rang-barang bo'lishligiga bog'liqdir. Musiqa asarlari, rang-barang ko'rgazmali qurollar, musiqa haqidagi qiziqarli fakt va malumotlarga boy bo'lgan, boshidan oxirigacha sust bo'lmagan suratda tashkil qilinadigan darslar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

“Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk marifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki talim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, talim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.” – Islom Karimov.

Hozirgi davr dunyodagi g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Shuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda.

Bu borada musiqa sanati xususan qo'shiqchilik ikki buyuk sanatni-sheriyat va musiqani o'zida mujassamlashtirgani holda katta tarbiya quroliga aylanadi.

Psixolog olimlarning fikriga ko'ra, musiqa inson bosh miya yarim sharlarida joylashgan neyronlarning asab kataklarining eng ichki qavatigacha etib boradi va u erda mavjud bo'lgan boy energiya zaxirasini ishga soladi. Bu o'z navbatidagi asar mazmunidagi g'oyalarni, badiiy obrazlarni yanada yaqinroq tasavvur qilishga

imkon beradi. Shuning uchun ham odatda “Soʻz tamom boʻlgan joyda musiqa boshlanadi”- deyiladi. Yani fikrni soʻz bilan ifoda qilib boʻlmagan taqdirda-uni musiqa orqali ifodalash mumkin boʻladi.

Umumiy oʻrta talim maktablarining “musiqa madaniyati” darslariga kiritilgan qoʻshiqlar dasturida ham istiqlolni, mustaqilligimizni, oʻzligimizni, bayram va ananalarimizni, Ona Vatanimizga boʻlgan cheksiz tuygʻularni ifodalovchi oʻnlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar oʻquvchilarda ijodiy faollikni oʻstirishga xizmat qiladi.

Xususan, “Mustaqillik lolalarimiz” R.Abdullaev musiqasi, N.Nazarov sheri, “Oʻzbekiston – Vatanim manim” D.Omonullaeva mus., J.Jabborov sheri, “Mustaqillik ayyomi” X.Rafiqov mus., N.Narzullaev sheri, “Navroʻzjon” M.Otajonov mus., Z.Moʻminova sheri, “Hunarmand yoshlar madhiyasi” q.Mamirov musiqasi va sheri, “Koʻkka uchdi Solijon akam” A.Mansurov mus., N.Narzullaev sheri, “Islom bob” Sh.Yormatov mus., M.Rahmon sheri, “Istiqlol haqida qoʻshiq” Q.Mamirov mus., L.Qoʻldoshev sheri, “Mehrjon” F.Alimov mus., Q.Ota sheri, “Yurtga sadoqat” H.Rahimov mus., S.Barnoev sheri va boshqalarni shunday mavzudagi asarlar sirasiga kiritish mumkin. Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi shundaki, musiqa darslari oldiga talim va tarbiya yoʻlida katta vazifalar qoʻyilgan. Nafaqat manaviy, axloqiy-estetik tarbiyani amalga oshirish balki qoʻshiq va musiqa sanati orqali oʻquvchilarda komillik, uning goʻzal tabiati insonlarga muhabbat, doʻstlik, birodarlik, tinchlik gʻoyalarini singdirish kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalar musiqa darslarining har bir saviyasida oʻquvchilarning ijodiy faolligini oʻstirish orqali amalga oshirishi mumkin. Zerikarli, sust, lanj, ehtirossiz oʻtkazilgan darslar hech bir samara bermasligini shubhasiz. Va uning aksi, har bir mashgʻulot jonli, qiziqarli, sinfnig faolligi darajasida olib borilgandagina koʻzlangan natijalarni berishi muqarrar.

Shunday qilib musiqa darslarida oʻquvchilarning ijodiy faolligini oshirish yoʻllari boʻyicha oʻrganilgan adabiyotlar tahlili koʻrsatadiki, bevosita ijodiy faollikni oʻstirishga bagʻishlangan adabiyotlar sanoqli. Ular ham bevosita musiqa bilan ijodiy faollik masalasi oʻz echimiga muhtoj degan fikrga keldik.



«Наврўз» байрами томошалари. Тошкент.




Фольклор-этнографик жамоалар кўрик-танлови.
Қорақалпоғистонлик иштирокчилар. Тошкент. 1999.



«Наврӯз» байрами томошалари. Тошкент.



«Шарқ тароналари» халқаро мусиқа фестивали.
Самарқанд, 1999.



Бухоро шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган байрам томошалари.
Бухоро. 1998.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992.-y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori.T.:
sharq, 1997
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.T.O'zbekiston, 1998. -686
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch –T.: O'zbekiston,2008. -686
5. Mannopov S. «So'nmas navolar». Farg'ona nashriyoti. 2002.
6. «Farg'ona ziyosi» jurnali. Ustoz nashriyoti. 2004.
7. Qirg'izov I. «YOshlarni musiqaga muhabbat ruhida tarbiyalash». Toshkent.
8. O'zbekiston nashriyoti. 1989 y.
9. To'lenov J., G'ofurov Z. Falsafa. Toshkent «O'qituvchi» 1991 y. 350-
bet.
10. Botir Muhammad Yoqub. Soz bilan suhbatni yolg'on demanglar. O'zbekiston
adabiyoti va san'ati 1993 y.
11. Abdulg'oziy. Shajarai turk. Toshkent. «Cho'lpon» 1992 y. 14-16 betlar.
12. Rajabov. Tanbur. O'zbekiston san'ati. 1982 y. 13-bet.
13. Yusuf Sharif. Kuylar qanotida asrlar osha. Sovet O'zbekistoni san'ati. 1983 y.
№8, 14-15-betlar.
14. Asotirlar va rivoyatlar. 1-kitob. (To'plab nashrga tayyorlovchilar M. Murodov,
M. Shayxova).
- 15.Odamlarga baxshida umr (Dil suhbat) Sovet O'zbekistoni san'ati. 1983 y., №4,
47-betlar
16. Mirzaeva Z. Komil madaniyatni komil insonlar yaratadi. Guliston,
1994 y., №5, 17-bet.
17. Farobiy Sovet O'zbekistoni san'ati. 1979 y. №9, 26-bet.
18. Aminov A. Allomaning musiqa merosi. O'qituvchilar gazetasi. 1980 y., 2 iyul,
3-bet.
19. Muzika sehri (To'plab qayta nashrga tayyorlovchilar: Z. Egamberdiev, Z.

Egamberdievalar) Toshkent «O'qituvchi», 1985

20. Асрларга тенгдош кўшиқлар. (Урф-одат ва маросимларимизга доир кўшиқлар мажмуаси).- Т.: жумҳурият илм.Метод. маркзи. 1995.127-бет.
21. Бегматов С. Мумтоз хонандалик санъати мезонлари.. Гулистон, 1995 №6, 32-33 бетлар.
22. Omonilla Madayev, Tojixon Sobitova
23. XALQ OG'ZAKI POETIK IJODI Toshkent 2011-yil
24. Oxunjon Safarov, Darmon O'rayeva, Manzila Qurbonova O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori Toshkent 2007-yil

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqa ijodiyotini o'rgatish orqali o'quvchilarni milliy an'alar ruxida tarbiyalash masalalari-----	7.
I.1. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni xalq folklor ijodiyotini bilan tanishtirish.-----	13
I.2. Xalq musiqa ijodiyotini o'rgatishda ustoz-shogird munosabatlaridan foydalanish-----	31.
II BOB. Musiqa madaniyat darslarida o'zbek musiqiy folklori cholg'uiarini o'rganishdagi tutgan o'rni.-----	50
II.1. Musiqa madaniyati darslarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar-----	68
II.2. Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida milliy musiqamizni o'ziga xos bezaklari orqali o'rgatish -----	70
Xulosa	77
Foydalanilgan adabiyotlar-----	83

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

